

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc 03/30.12.2019.Fil.05.02  
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI**

**RAXIMOV ZAKIR AZIMOVICH**

**ODIL YOQUBOV TARIXIY ROMANLARI  
POETIKASI**

**10.00.02 – O‘zbek adabiyoti**

**FILOLOGIYA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**F a r g ‘ o n a – 2023**

**Doktorlik (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**  
**Оглавление автореферата докторской (DSc) диссертации**  
**Contents of the abstract of doctoral dissertation (DSc)**

**Raximov Zakir Azimovich**

Odil Yoqubov tarixiy romanlari poetikasi .....3-31

**Рахимов Зокир Азимович**

Поэтика исторических романов Адыла Якубова .....33-65

**Rakhimov Zakir Azimovich**

Poetics of historical novels of Odil Yakubov .....67-72

**E'lon qilingan ishlar ro'uxati**

Список опубликованных работ

List of published works .....73-75

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI DSc 03/30.12.2019.Fil.05.02  
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI**

**RAXIMOV ZAKIR AZIMOVICH**

**ODIL YOQUBOV TARIXIY ROMANLARI  
POETIKASI**

**10.00.02 – O‘zbek adabiyoti**

**FILOLOGIYA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI**

**AVTOREFERATI**

**F a r g ‘ o n a – 2023**

**Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.4.DSc/Fil252 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Farg'ona davlat universiteti adabiyotshunoslik kafedrasida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz(rezyume)) ilmiy kengash veb-sahifasining [www.fdu.uz](http://www.fdu.uz) hamda «ZiyoNET» axborot-ta'lim portali [www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz) manziliga joylashtirilgan.

**Ilmiy maslahatchi:**

**Sabirdinov Akbar G'ofurovich**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Tojiboyeva Muqaddas Abdurahimovna**  
filologiya fanlari doktori

**Yakubov Islamjon Axmedjanovich**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Nasirov Azimiddin Normamatovich**  
filologiya fanlari doktori

**Yetakchi tashkilot:**

**Guliston davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Farg'ona davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 raqamli Ilmiy kengashning «11» aprel 2023 yil soat 9:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100151, Farg'ona shahri, B.Marg'inoniy ko'chasi, 105-uy. Tel.: (99873) 244-66-02; faks: (99873) 244-44-01; e-mail: [info@fdu.uz](mailto:info@fdu.uz)).

Dissertatsiya bilan Farg'ona davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (249 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100151, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy. Tel.: (99873) 244-44-94.

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «29» mart kuni tarqatildi.

(2023 yil «29» mart dagi 6-raqamli reyestr bayonnomasi)



**Sh.M.Iskandarova**  
Ilmiy darajalar beruvchi, Ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori, professor

**M.T.Zokirov**  
Ilmiy darajalar beruvchi, Ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari nomzodi, professor

**Z.B.Qobilova**  
Ilmiy darajalar beruvchi, Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori, professor

## **KIRISH ( Fan doktori (Dsc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** XXI asr jahon adabiyotshunosligida janr poetikasini, xususan, tarixiy romanning nazariy asoslarini yangicha yondashuvlar asosida tadqiq etish masalasi kun tartibiga qo'yilmoqda. Zero, zamonaviy kitobxon badiiy asar, ayniqsa, tarixiy romanning poetik xususiyatlari, epik kechinma tabiati, mavzu ko'lami, obrazlar tasnifi va tavsifi orqaligina milliy tarixni teranroq anglaydi. Yozuvchining ijodiy laboratoriyasida jiddiy qayta ishlanadigan badiiy voqelik vositasida ijodkor dunyoqarashi, fikrlash tarzi, uslubi hamda ta'sir manbalari vositasida umuminsoniy qadriyatlarni namoyon etish, ularni tarixiy romanlar tadqiqi orqali xolis va haqqoniy baholash muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Dunyo adabiyotshunosligida o'tgan asrda shakllanib va taraqqiy etib kelgan tarixiy romanchilik an'alarining bugungi globallashuv jarayonida tarixiy-madaniy, tarixiy-qiyosiy, qiyosiy-tipologik metodlar asosida o'rganilishi muhim ahamiyatga ega. Bu esa keyingi davrda dunyo ilm-fanining rivojlanish yo'nalishini qaytadan belgilash, yangicha ilmiy-nazariy va badiiy-estetik qarashlar shakllanayotgan jarayonda tarixiy-badiiy tafakkurning nisbatan kamroq e'tibor qaratilgan ba'zi jihatlarini tekshirish, shuningdek, o'zbek romanlarini turli aspekt va uslublarda tahlil etish imkonini beradi. Ayni paytda, tarixiy romanchilik an'alarining eng ilg'or jihatlarini ma'lum darajada ijodiy o'zlashtirgan bu jarayonga bugungi kun nuqtayi nazaridan tahliliy yondashish, uning taraqqiyot yo'lini yoritish va muayyan yozuvchi mahorati, tarixiy voqelikni talqin etuvchi asarlar poetikasini tahlil etish zaruratini ham keltirib chiqaradi.

O'zbek adabiyotshunosligi hamda adabiy tanqidchiligida istiqlool arafasidan hozirga qadar bo'lgan davrda badiiy ijodning muhim halqasi hisoblangan asar poetikasi tadqiqiga yangicha yondashilib, tarixiy roman poetikasi, uning taraqqiyot bosqichlari tahlili va talqiniga jiddiy e'tibor qaratildi. Chunki "Ushbu zaminda dunyo sivilizatsiyasi rivojiga beqiyos hissa qo'shgan buyuk gumanist olimlar, mutafakkir va shoirlar yashab ijod qilgan... Tarixga nazar tashlasak, buyuk ajdodlarimiz erishgan olamshumul yutuqlar zamirida, avvalo, ona-Vatanga, xalqqa xizmat qilishdek olijanob maqsad mujassam ekanini ko'ramiz"<sup>1</sup>. Shuning o'ziyoq tarixiy davr va buyuk siymolarning badiiy talqiniga bag'ishlangan asarlar, jumladan, tarixiy romanlarni nazariy jihatdan tadqiq qilish, ulardagi yutuq va kamchiliklarni xolis o'rganish zaruratini taqozo qilmoqda. Bu esa, o'z navbatida, O'zbekiston xalq yozuvchisi Odil Yoqubov tarixiy romanlarini Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi nuqtayi nazaridan o'rganish, qayta baholash vazifasini ham kun tartibiga qo'yadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60, 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847, 2020-yil 20-oktabrdagi "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi

---

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: O'zbekiston, 2021. – Б.37.

PF-6084-sonli Farmonlari, 2019-yil 29-oktabrdagi “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida”gi O‘RQ-576-sonli Qonun, shuningdek, mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi.** Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalarining I.“Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi**<sup>2</sup>. Dunyo adabiyotshunosligida o‘zbek romanchiligi hamda o‘zbek tarixiy romanlari poetikasi masalalari o‘tgan asrdan boshlab keng o‘rganib kelinmoqda. Jumladan, Kolumbiya universiteti (Columbia University, AQSH), Ataturk universiteti (Atatürk Üniversitesi, Turkiya), Markaziy Yevropa universiteti (Central European University, Vengriya), Seged universiteti (University of Szeged, Vengriya), Belorussiya davlat universiteti (Minsk, Belorussiya), Moskva davlat universiteti (Rossiya), Rossiya davlat pedagogika universiteti, Povolje davlat ijtimoiy-gumanitar akademiyasi, Xo‘jand davlat universiteti (Tojikiston), Bishkek davlat universiteti (Qirg‘iziston), O‘zbekiston Milliy universiteti, Samarqand davlat universiteti, Qoraqalpoq davlat universiteti, Toshkent davlat pedagogika universiteti, Andijon davlat universiteti, Buxoro davlat universiteti, Farg‘ona davlat universiteti, Jizzah davlat pedagogika universiteti (O‘zbekiston) kabi ilmiy markazlarni keltirish mumkin.

Shuningdek, Edvard Ollvord tomonidan XX asrda o‘zbek adabiyotidagi evrilishlar, Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, Odil Yoqubov kabi adiblarning tarixiy asarlari ko‘p asrlik o‘zbek epik adabiyotining davomi sifatida baholangan. Temur Kojao‘g‘li Stalindan keyingi davrda O‘rta Osiyo nasrida milliy o‘zlikni anglash jarayonining ifodalanishi muammosini o‘zbek, qozoq, qirg‘iz xalqlari adabiyotida yaratilgan tarixiy romanlar, jumladan, Odil Yoqubovning “Ulug‘bek xazinasi” asari misolida tadqiq etgan. Otaturk universitetining professori Orxan So‘ylemez “Turkiya turkchasiga tarjima qilingan o‘zbek tarixiy romanlari” nomli maqolasida Odil Yoqubovning “Ulug‘bek xazinasi”, “Ko‘hna dunyo” romanlariga maxsus to‘xtalib, ularning o‘zbek romanchiligi taraqqiyotiga muhim hissa bo‘lib qo‘shilganini qator dalillar bilan isbotlab bergan. O‘zbek nasri bo‘yicha Georg Xazai, Andrash Rona kabi olimlar (Vengriya), T.Komarovskaya esa AQSH tarixiy romanlari poetikasi bo‘yicha maxsus tadqiqotlar olib borgan. Moskva davlat universiteti (A.Kudryavseva, Y.Boroshkovskaya, P.Makarova), Rossiya davlat pedagogika universiteti (Ye.Matyushkina), Xo‘jand davlat universiteti

---

<sup>2</sup> <http://www.dictionary.com/browse/historical-novel>; <https://www.britannica.com/art/historical-novel>; [https://simple.wikipedia.org/wiki/Historical\\_novel](https://simple.wikipedia.org/wiki/Historical_novel); <https://www.publishersweekly.com/pw/by-topic/industry-news/tip-sheet/article/64137-10-best-historical-novels.html>; [https://warwick.ac.uk/fac/arts/english/currentstudents/undergraduate/modules/fulllist/special/english19thcentnovel/john\\_bowen\\_the\\_historical\\_novel.pdf](https://warwick.ac.uk/fac/arts/english/currentstudents/undergraduate/modules/fulllist/special/english19thcentnovel/john_bowen_the_historical_novel.pdf); <https://cyberleninka.ru/article/n/problemy-razvitiya-i> <http://www.dissercat.com> storicheskogo-romana-vkyrgyzskoy-literature; <http://www.russ.ru/Mirovaya-povestka/Russkij-istoricheskij-roman-i-problemaobschestvennogo-vybora>; <http://www.dissercat.com> linguistics-konspekt.org/ontent

(Z.Ulmasova)<sup>3</sup>, Bishkek davlat universiteti (A.Abdiramanova) O‘zbekiston Milliy universiteti (Ye.Kaminskaya), Toshkent davlat pedagogika universiteti (F.Ikromxonova), Qoraqalpoq davlat universiteti (P.Nurjanov), Buxoro davlat universiteti (G‘.Murodov) olimlarining tadqiqotlarini keltirish mumkin<sup>4</sup>.

Ko‘rinadiki, jahon adabiyotshunosligida tarixiy romanlar poetikasi, asar tili, janrlar evrilishi, tarixiy haqiqat va badiiy to‘qima, mifologiya va tarixiylik tamoyillari kabi muammolar tadqiq etilgan. O‘zbek nasrida ham so‘nggi yillardagi o‘zgarishlar tarixiy romanlarning poetik xususiyatlari, badiiy-estetik ahamiyatini atroflicha yoritishga asos bo‘lgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** O‘zbek, rus va jahon adabiyotshunosligida tarixiy roman genezisi, tadrijiy taraqqiyoti va mohiyati, u yoki bu darajadagi nazariy muammolar muayyan darajada o‘rganilgan<sup>5</sup>. Mazkur

<sup>3</sup> Комаровская Т.Е. Исторический роман США XX века. – Минск, БГПУ, 2019. – 238 с.; Шу муаллиф. Проблемы поэтики исторического романа США XX века. – Минск, БГПУ, 2004. – 124 с.; Шу муаллиф. Проблемы поэтики исторического романа США XX века: Автореф. диссерт.... док.фил.наук. – Москва: МПУ, 1994. – 38 с.; Кудрявцева А.Ю. Поэтика исторического романа Ф.Д.Гверации: Дисс....канд.фил.наук. – Москва, 2016. – 191 с.; Барашковская Ю.А. История и вымысел в английском романе 1980-х-1990-х гг.: Автореф.дисс...канд.фил.наук. – Москва, 2006. –32 с.; Макарова П.А. Французский исторический роман 1840-1850-х гг. и становление популярной беллетристики: Дисс....канд.фил.наук. – Москва, 2014. – 197 с.; Матюшкина Е. Трансформация жанра исторического романа в творчестве Б.Окуджавы: Автореф. дисс....канд.фил.наук. – Санкт-Петербург, 2012. – 19 с.; Ульмасова З.Х. Концепция личности в таджикских исторических романах конца XX – начала XXI века: Автореф.дисс....док.фил.наук. – Душанбе, 2014. – 47 с.

<sup>4</sup> Абдыраманова А. Поэтика кыргызских романов XX века. : Автореф.дисс....док.фил.наук. – Бишкек, 2020. – 42 с.; Каминская Е.М. Поэтика прозы С.П.Бородина: Дисс...д-ра фил.наук. – Ташкент, 2022. – 276 с. Икромхонова Ф.И. Ўзбек ва инглиззабон насрда тарихий асар поэтикаси (композиция ва образ): Фил.фан. д-ри...дисс. –Тошкент, 2021. – 256 б.; Нуржанов П.Е. Қорақалпоқ романи поэтикаси: сюжет ва композиция (1970-2000 йиллар): Филол.фан.д-ри...дисс.автореф.. – Нукус, 2020. – 61 б.; Муродов Ф. Тарихий романининг муштараклик ва ўзига хосликлар уйғунлиги муаммолари: Фил.фан.д-ри...дисс. –Тошкент, 2018. – 263 б.

<sup>5</sup> Аристотель. Поэтика. – Тошкент: Фафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1980. – 151 б.; Nield J. A Guide to the Best Historical Novels and Tales. – L., 1929; Matthews V. Historical Novel and Other Essays. – Freeport, 1968. Cam H. M. Historical Novel. – L., 1961; Dickinson A. T. American Historical Fiction. – N. Y., 1958; Holder A. The Imagined Past. Portrayals of Our History in Modern American Literature. – Lewisburg, 1980; Butterfield H. The Historical Novel. – Cambridge, 1924; Butterfield H. History and Man’s Attitude to the Past: Their Role in the Story of Civilization. – L., 1961; Butterfield H. The Reconstruction of an Historical Episode. – Glasgow, 1951; Leisy E. The American Historical Novel. – Norman, 1950; Томашевский Б.В. Теория литературы. Поэтика. – М.-Л.: Наука, 1930. – 225 с.; Веселовский А.Н. Историческая поэтика. – Л.: Наука, 1940. – 487 с.; Тимофеев Л. Основы теории литературы. – Москва: Просвещение, 1966. – 478 с.; Зись А. Искусство и эстетика. – Москва: Наука, 1967. – 214 с.; Храпченко М.Б. Творческая индивидуальность писателя и развитие литературы. – Москва: Наука, 1970. – 266 с.; Бахтин М.М. Проблемы поэтики Достоевского. – Москва: Наука, 1973. – 207 с.; Бахтин М.М. Эстетика словесного творчества. – Москва: Наука, 1979. – 422 с.; Виноградов В.В. Поэтика русской литературы. – Москва: Наука, 1976. – 484 с.; Жирмунский В. М. Теория литературы. Поэтика. Стилистика. – Л.: Наука, 1977. – 404 с.; Поляков М.Я. Вопросы поэтики и художественной семантики. – Москва: Советский писатель, 1986. – 480 с.; Мирвалиев С. Ўзбек романи. – Тошкент: Фан, 1969. – 313 б.; Каримов Н. Ойбек. – Тошкент: Ёш гвардия, 1985. – 120 б.; Назаров Б. Ҳаётийлик – безавол мезон: Адабий ўйлар. – Тошкент: Ёш гвардия, 1985. – 224 б.; Султон И. Адабиёт назарияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1986. – 408 б.; Қўшжонов М. Ўзбек романчилигининг ривожланиш босқичлари ва жанр хусусиятлари // Адабий турлар ва жанрлар. Уч жилдлик. Биринчи жилд. – Тошкент: Фан, 1991. – 299-382 б.; Ўрта Осиё ва Қозоғистон халқлари адабиётидаги роман жанрини типологик ўрганиш. – Тошкент: Фан, 1991. – 272 б.; Болтабоев Ҳ. Наср ва услуб. – Тошкент: Фан, 1992. – 104 б.; Раҳимов А. Ўзбек романи поэтикаси: Филол.фан.д-ри...дисс.автореф... – Тошкент, 1993. – 52 б.; Норматов У. Умидбахш тамойиллар. – Тошкент: Маънавият, 2000. – 102 б.; Умуров Ҳ. Бадий ижод асослари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2001. – 160 б.; Тўраев Д. Ўзбек романларида бадий тафаккур ва маҳорат муаммоси. – Тошкент: Университет, 2001. – 168 б.; Солижонов Й. Нутқ ва услуб. – Тошкент: Чўлпон, 2002. – 128 б.; Шарафиддинов О. Ижодни англаш бахти. – Тошкент: Шарқ, 2004. – 640 б.; Саримсоқов Б. Бадийлик асослари ва мезонлари. – Тошкент, 2004. – 127 б.; Қурононов Д. Чўлпон насри поэтикаси. – Тошкент: Шарқ, 2004. – 288 б.; Содик С. Ижоднинг ўттиз лаҳзаси. Адабий-танқидий мақолалар. – Тошкент: Шарқ, 2005. – 320 б.; Муродов Ф. Тарихий роман:

tadqiqotlarda romanning janri, badiiy tili, obrazlar tizimi, sujet, kompozitsiya, tarixiy haqiqat va badiiy to‘qima, tarixiy makon va zamon birligi, shaxs va jamiyat munosabatining badiiy talqini kabi qator nazariy muammolar yoritilgan.

“XX asr o‘zbek adabiyotida ... Alisher Navoiy, Mirzo Ulug‘bek, Beruniy, Ibn Sino, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi ulug‘ shoirlar, olimlar va davlat arboblari haqida ancha baquvvat asarlar yaratilgan. Bu borada, ayniqsa, Odil Yoqubov va Pirimqul Qodirov kabi adiblarimizning xizmati diqqatga sazovordir”<sup>6</sup>. Natijada, “... har jihatdan tarixiy roman talablariga javob beradigan asarlar yaratishga asos bo‘ladigan maktab yaratildi (“Navoiy”, “Abay yo‘li”, “Ulug‘bek xazinasi”, “Ko‘hna dunyo”, “Yulduzli tunlar”, “Avlodlar dovoni”)”<sup>7</sup>. Ayniqsa, “O.Yoqubovning 70-80-yillarda yaratilgan tarixiy mavzudagi “Ulug‘bek xazinasi” va “Ko‘hna dunyo” asarlari faqat adib ijodida emas, o‘zbek romanchiligi rivojida ham yangi bir bosqichni tashkil etadi”<sup>8</sup>. Buning ta’sirida “Yozuvchi (O.Yoqubov) o‘zbek romani poetikasiga ko‘pgina yangiliklar olib kirdi. Xususan, u o‘zbek tarixiy-polifonik romaniga asos soldi”<sup>9</sup>. Shu ma’noda, o‘zbek romani hamda Odil Yoqubov asarlari poetikasi, tarixiy romanning janr xususiyatlari M.Qo‘shjonov, S.Mirvaliyev, U.Normatov, A.Kattabekov, A.Rahimov, H.Karimov, D.To‘rayev, Y.Solijonov, D.Quronov, B.Karimov, Z.Pardayeva, Sh.Doniyarova, I.Yoqubov, A.Nosirov, X.Xamroqulova, S.Miliyev, B.To‘rayeva, N.Soatova M.Mirqosimova, A.Xolmurodov, I.Samandarov, A.Ergashev, O.Iskandarova, T.Qurbonov, Z.Rahimov, Sh.Isayeva, S.Komilova va boshqalarning dissertatsiya, monografiya, ilmiy risola hamda maqolalarida tahliliy o‘rganilgan<sup>10</sup>.

---

генезиси, кейинги тараққиёти. – Тошкент: Фан, 2005. – 172 б.; Йўлдошев Қ. Ёниқ сўз. Адабий ўйлар. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2006. – 548 б.; Ёқубов И. Ўзбек романи тадрижи. – Тошкент: Фан ва технология, 2006. – 164 б.; Норматов У. Ижод сеҳри. – Тошкент, 2007. – 352 б.; Расулов А. Бадийлик – безавол янгилик. – Тошкент: Шарқ, 2007. – 336 б.; Муродов Ғ., Темирова Д. Тарихий романда сюжет муаммоси. – Тошкент: Фан, 2008. – 40 б.; Насиров А. О. Ёқубов романлари поэтикаси. – Тошкент: Фан, 2012. – 160 б.; Раҳимов А. Роман санъати. – Фарғона: Фарғона, 2015. – 95 б.; Жўрақулов У. Назарий поэтика масалалари: Муаллиф. Жанр. Хронотоп. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 2015. – 356 б.; Жўрақулов У. Романда замон ва хронотоп шакллари. – Тошкент: Akademnashr, 2015. – 288 б.; Карим Б. Рухият алифбоси. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 2016. – 364 б.; Сабирдинов А. Маънавият ва маърифат чашмалари. – Тошкент: Akademnashr, 2016. – 114 б.; Каримов Х. Адабий портретлар. – Тошкент: Yangi nashr, 2017. – 420 б.; Каримов Х. Кечаги ўзбек насрида ҳаёт ҳақиқати ва инсон концепцияси (70-80-йиллар). – Тошкент: Yangi nashr, 2018. – 320 б.; Каримов Н. Уч буюк сиймо. – Тошкент: Mumtoz soz, 2019. – 428 б.; Султон Саад ал-Қахтоний. Саудия адабиётида роман. – Тошкент: Ёшлар нашриёти уйи, 2020. – 360 б.; Каримов Х. Пиримқул Қодиров ижодий олами. – Тошкент: Tafakkur, 2020. – 540 б.; Солижонов Й. Адабиёт хибони. – Фарғона: Фарғона, 2020. – 324 б.; Алимбеков А. Юлдузнинг беш қирраси. – Тошкент: Oqituvchi, 2020. – 408 б.; Йўлчиев Қ. Нурали Қобулнинг прозаик маҳорати. – Тошкент: Marifat bitiklari, 2021. – 252 б.

<sup>6</sup> Шарафиддинов О. Танланган асарлар. – Тошкент: Шарқ, 2019. – Б.17.

<sup>7</sup> Қўшжонов М. Танланган асарлар. – Тошкент: Шарқ, 2018. – Б.438.

<sup>8</sup> Норматов У. Янги ўзбек адабиёти. – Тошкент: Университет, 2007. – Б.170.

<sup>9</sup> Sodiq Sanjar. Yangi ozbek adabiyoti tarixi. – Тошкент: O‘qituvchi, 2019. – Б.523.

<sup>10</sup> Қўшжонов М. Ўзбек ромanchилигининг ривожланиш босқичлари ва жанр хусусиятлари // Адабий турлар ва жанрлар. Уч жилдлик. Биринчи жилд. – Тошкент: Фан, 1991. – 299-382 б.; Мирвалиев С. Ўзбек романи. – Тошкент: Фан, 1969. – 313 б.; Норматов У. Қодирий мўъжизаси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2010. – 272 б.; Шу муаллиф. Нафосат гурунглари. – Тошкент: Муҳаррир, 2010. – 390 б.; Шу муаллиф. Ижодкорнинг ҳароратли сўзи. – Тошкент: Турон замин зиё, 2010. – 320 б. Каттабеков А. Художественное воплощение личности исторической эпохи в современной узбекской прозе: Автореф. дис. ... д-ра филол.наук. – Ташкент, 1985. – 38 б.; Раҳимов А. Ўзбек романи поэтикаси: Филол.фан.д-ри...дисс.автореф.. – Тошкент, 1993. – 52 б.; Каримов Х. Ҳозирги ўзбек насрида ҳаёт ҳақиқати ва инсон концепцияси (70-80-йиллар): Филол.фан.докт...дисс.автореф. – Тошкент, 1994. – 318 б.; Тўраев Д. Ҳозирги ўзбек романларида бадий тафаккур ва маҳорат муаммоси (60-80-йиллар): Филол.фан.д-ри...дисс. – Тошкент, 1994. – 314 б.; Қуронов Д.

Manbalarda yozuvchining portret yaratish mahorati, rivoyatlarning roman mikrostrukturasidagi o‘ziga xos o‘rni, ruhiyat tasvirining qahramon va personajlar talqinidagi funksiyasi, yozuvchi ijodiy uslubi, badiiy nutq va romaniy tafakkurning uzviyligi, tarixiy haqiqat, inson konsepsiyasi tajassumi, sujet va konflikt poetikasining dialektik birligi maxsus tadqiq etilgan. Shunday bo‘lsa-da, Odil Yoqubovning tarixiy romanlari poetikasini davr ruhiyati, estetik talqin, tarixiy kolorit, badiiy xronotop, polifonik tasvir xususiyatlarining ifoda tarzi, badiiy nutq, uslub, tarixiy shaxs obrazini yaratishda tarixiylik va badiiylik funksiyasi nuqtayi nazaridan o‘rganishga ehtiyoj mavjud.

Odil Yoqubovning tarixiy mavzudagi ijodiy izlanishlari jiddiy muvaffaqiyatlarga olib keldi. Ayniqsa, voqea-hodisalar va xarakterlar talqinida hayotiylikka erishish, tasvirda yangilikka intilish natijasida adib asarlari polifonik xususiyat kasb etdi. Natijada, u milliy romanchiligimiz poetikasiga qator yangiliklarni olib kirishga muvaffaq bo‘ldi. Lekin yozuvchining tarixiy romanlari poetikasiga xos jihatlar, uslubiy izlanishlari maxsus tadqiq etilmaganligi bois, tarixiy asarlarini san‘at hodisasi sifatida ilmiy-estetik tahlil qilish zaruriyati yuzaga keldi. Chunki yangi davr badiiy-estetik qarashlari asosida o‘zbek tarixiy romanlari poetikasi bir ijodkor misolida yaxlit holda o‘rganilmagan. Shuning uchun ushbu nazariy muammoni O‘zbekiston xalq yozuvchisi Odil Yoqubov adabiy mahorati negizida tahlil qilish zarurati vujudga keldi. Keyingi yillarda adabiyotshunoslikda umumjahon tarixiy romanchiligi yutuqlari bilan sharqona badiiyatning o‘ziga xos tarzda uyg‘unlashib borayotgani, adib tarixiy romanlariga bugungi kun nuqtayi nazaridan munosabat bildirish imkonini beradi. Ayni paytda, “Ulug‘bek xazinasi” va “Ko‘hna dunyo” romanlarini yaxlit holda, “xususiy poetika” aspektida maxsus

---

Чўлпон поэтикаси: Филол.фан.д-ри...дисс. – Тошкент, 1998. – 284 б.; Солижонов Й. XX асрнинг 80-90-йиллари ўзбек насрида бадий нутқ поэтикаси: Филол.фан.д-ри...дисс.автореф. – Тошкент, 2002. – 50 б.; Б.Каримов. XX аср ўзбек адабиётшунослигида талқин муаммоси(қодирийшунослик мисолида): Филол.фан.д-ри...дисс. – Тошкент, 2002. – 304 б.; Пардаева З. Ҳозирги ўзбек ромanchилигининг тараққиёт тамойиллари: Филол.фан.д-ри...дисс. – Тошкент, 2003. – 295 б.; Дониярова Ш. Истиклол даври ўзбек романларида миллий рух ва қаҳрамон муаммоси: Филол. фан. док... дисс. –Тошкент, – 2012. – 257 б.; Якубов И. Мустақиллик даври ўзбек романлари поэтикаси. Филол. фан. док. дисс. – Тошкент, 2018. – 287 б.; Насиров А. О.Ёқубов романлари поэтикаси: Филол.фан. д-ри...дисс. – Самарқанд, 2018. – 243 б.; Хамрокулова Х. XX аср ўзбек насрида ҳаёт ва ўлим муаммосининг бадий талқини: Филол.фан.докт....дисс.автореф. – Тошкент, 2018. – 65 б.; Мириев С. Глобал илмий-бадий талқин поэтикаси: Филол. фан. док... дисс. – Тошкент, 2019. – 220 б.; Тўраева Б. Тарихий романларда бадий замон муаммоси: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD)... дисс. – Тошкент, 2018. – 160 б. Шу муаллиф. Замонавий ромanchиликда хронотоп поэтикасининг қиёсий-типологик тадқиқи: Филол.фан. докт....дисс.автореф. – Тошкент, 2022. – 72 б.; Соатова Н. XX аср ўзбек адабиёти тараққиётида Шухрат ижодининг ўрни: Филол.фан.д-ри...дисс. – Бухоро, 2022. – 272 б.; Мирқасимова М. Жанрово-стилевые особенности узбекского романа 70-80-х годов (Романы А.Якубова и П.Кадырова): Автореф. дис. ... канд. филол.наук. – Тошкент, 1986. – 17 б.; Холмуродов А. О.Ёқубов романларида бадий психологизм: Филол.фан.ном...дисс.автореф. – Тошкент, 1991; Самандаров И. Историзм узбекских исторических романов: Автореф. дис. ... канд. филол.наук. – Тошкент, 1992. – 24 б.; Эргашев А. Ривоят ва унинг бадий асар сюжет-композицион тузилишидаги ўрни (Асқад Мухторнинг “Чинор” ва О.Ёқубовнинг “Кўхна дунё” романлари асосида): Филол.фан.ном...дисс.автореф. – Тошкент, 1993. – 27 б.; Искандарова О. “Диёнат” ва “Қиёмат” романларида инсоний муносабатларнинг бадий тасвири: Филол.фан.номз...дисс.автореф. – Тошкент, 1995. – 24 б.; Қурбонов Т. О.Ёқубовнинг портрет яратиш маҳорати: Филол.фан. номз.... дисс. автореф. – Тошкент, 1997. – 24 б.; Раҳимов З. “Одил Ёқубовнинг “Кўхна дунё” романи поэтикаси”: Филол.фан. номз.... дисс. автореф. – Тошкент, 2000. – 25 б.; Исаева Ш. Ўзбек тарихий романларида характер рухиятини тасвирлаш усуллари: Филол.фан.номз....дисс. – Тошкент, 2001. – 129 б.; Камилова С. Нравственно-психологические искания в художественной литературе 70-90-х годов XX века (на материале произведений В.Распутина и А.Якубова): Автореф. дис. ... канд. филол.наук. – Тошкент, 2008. – 24 с.

tadqiq obykti sifatida tanlanishi yuqoridagi fikrlar mundarijasini yana ham kengaytirib, asosli xulosalar chiqarishda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Tadqiqot Farg'ona davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlar rejasining "Poetika muammolari" mavzusi doirasida amalga oshirilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** Odil Yoqubov tarixiy romanlari poetikasining o'ziga xos jihatlari ushbu janr spetsifikasi, sujet-kompozitsion xususiyatlari, badiiy xronotop, individual uslub va badiiyat masalalari asosida tizimli o'rganilib, ilmiy-nazariy yoritib berishdan iboratdir.

**Tadqiqotning vazifalari:**

milliy tarixiy roman janri shakllanishining nazariy asoslarini aniqlash, tahlil qilish, o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatib berish, davr va ijtimoiy-siyosiy tuzumning mafkuraviy talablari, badiiy adabiyot, xususan, romanchilik namunalari asosida XX asr o'zbek tarixiy romani taraqqiyoti bosqichlarini aniqlash va tahlil qilish;

ijodkor tarixiy romanlaridagi badiiy-uslubiy izlanishlarni tahlilga tortish, tarixiy romanning nazariy asoslari va taraqqiyot bosqichlarini ko'rsatish, tarixiy, falsafiy, badiiy talqinning ijodiy g'oyani ifodalashdagi dialektik birligini ochib berish hamda tarixiy romandagi badiiy xronotop shakllari, kompozitsiya va sujet masalalari, tarixiy qahramon va badiiy to'qima, personajlar olamini tasvirlashda ijodkor mahorati qirralarini yoritish;

adib romanlarida kuzatilgan ijodiy tendensiyalarning o'ziga xosligi va badiiy xronotopning ifoda individualligi tarixiy davr ruhi va tarixiy voqelik mohiyatini ochish vositasi ekanligini asoslash;

Odil Yoqubov romanlarida tarixiy shaxs obrazi talqini, bu boradagi yozuvchining an'anaviylik va novatorlikni yuzaga chiqarishdagi badiiy mahoratiga xos jihatlarni ko'rsatish, ijodkorning tarixiy voqelik va badiiy to'qimani uyg'unlashtirishdagi badiiy-estetik tamoyillarini tahlil qilish;

tarixiy roman sujet qurilishi va yozuvchi ijodiga xos xususiyatlar, retrospektiv sujetning imkoniyat va afzalliklarini ochib berish;

adib ijodiga folklor an'analari ta'siri, roman poetikasida mif, afsona, rivoyatlarning o'rni va roli, novatorona xususiyatlarni yoritish hamda tarixiy romanning nutqiy o'ziga xosliklarini ko'rsatib berishdan iborat.

**Tadqiqot obykti** sifatida Odil Yoqubovning "Ulug'bek xazinasini", "Ko'hna dunyo" tarixiy romanlari tanlangan. Shuningdek, zarur o'rinlarda yozuvchining zamonaviy asarlari, o'zbek va jahon adabiyotidagi boshqa tarixiy romanlarga ham murojaat qilinib, qiyosiy tahlilga tortilgan.

**Tadqiqot predmetini** Odil Yoqubov tarixiy romanlari poetikasi, xronotop ifodasi, adib uslubi, xarakter va ruhiyat talqini, poetik tasvir tamoyillaridagi uyg'unlik masalalari tadqiqi orqali yozuvchining XX asr o'zbek adabiyotidagi o'rnini ko'rsatib berish tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada qiyosiy-tarixiy, qiyosiy-tipologik, biografik, psixologik, psixoanalitik tahlil usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

tarixiy roman genezisi va taraqqiyot bosqichlari, konsepsiyasi, semantik strukturasi va badiiyati bilan bog‘liq poetik jihatlar ijtimoiy-siyosiy, adabiy muhit bilan uyg‘unlikda ochib berilgan;

Odil Yoqubov tarixiy romanlari sujet qurilishidagi izchillik, tarixiy qahramon talqinidagi yozuvchi mahorati, tarixiy voqelikning falsafiy fikr ifodasi uchun xizmat qilishi, badiiy-estetik funktsiya bajarishi isbotlangan;

davr va qahramon talqinidagi tarixiy haqiqat va badiiy to‘qima, ijodkor dunyoqarashi va badiiy qahramonlar o‘rtasidagi tasvir mushtarakligi adib tarixiy romanlari asosida qiyosiy-tipologik jihatdan isbotlangan;

yo‘zuvchining badiiy qahramon va xarakter yaratish, tarixiylik va zamonaviylik, milliylik va umuminsoniylikni ifodalash mahorati tarixiy roman rivojidadagi yetakchi tamoyil va taraqqiyot bosqichlarini o‘rganish orqali asoslangan;

adib tarixiy romanlarining xronotop poetikasi tarixiy qahramon va badiiy personajlar, zamon va makon, xarakter va ruhiyat munosabati bilan bog‘liq ekanligi dalillangan.

**Dissertatsiyaning amaliy natijasi** quyidagilardan iborat:

Odil Yoqubov tarixiy romanlarini tahlil va tadqiq qilish davomida chiqarilgan xulosalar o‘zbek adabiyotshunosligining nazariy asoslarini boyitishi, adabiyotshunoslik fanlari bo‘yicha yaratiladigan darslik va o‘quv qo‘llanmalarining mukammallashuviga xizmat qiladi;

yo‘zuvchi ijodi o‘zbek romanchiligi, xususan, tarixiy roman janr tabiatidagi o‘zgarishlar mavzuning poetik asoslari va izlanishlar doirasini belgilashda muhim manba ekani dalillandi;

tarixiy roman taraqqiyotida tarixiy shaxs va badiiy qahramon muammosining badiiy talqini, obraz yaratishda makon va zamonning uzviy birligi romaniy tafakkurning badiiyatga singdirilishida yetakchi tamoyil ekanligi aniqlandi;

tarixiy roman poetikasi badiiyat mezonlariga asoslanishida muayyan uyg‘unlik hosil qilish jarayonlari tavsiflangan, poetik kategoriyaning ijodiy an‘ana va individual tajriba mushtarakligini ta‘minlashga xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tarixiy roman poetikasi muammosining tarixiy va nazariy poetika aspektida yoritib berilganligi, bunda qiyosiy-tarixiy, qiyosiy-tipologik, biografik, psixologik, psixoanalitik tahlil usullaridan foydalanilganligi, o‘zbek adabiyoti spetsifikasidan kelib chiqib, tushunchalarga ilmiy tavsif berishda, mavzuni yoritishda bevosita adibning estetik konsepsiyasiga tayanilganligi, nazariy tushunchalarga muvofiq xulosalar chiqarilganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqotning ilmiy ahamiyati dissertatsiya materiallaridan tarixiy roman poetikasining badiiy-estetik tamoyillarini to‘ldirishda, adabiyot nazariyasi, jahon adabiyoti, janrlar nazariyasi va epik janrlar tipologiyasiga oid tadqiqotlarda, xronotop nazariyasi haqidagi qarashlarni asoslashda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati gumanitar yo‘nalishdagi oliy ta‘lim muassasalarining magistratura mutaxassisliklari va bakalavr yo‘nalishlari uchun

“Adabiyotshunoslikka kirish”, “Adabiyot nazariyasi”, “Tarixiy va nazariy poetika”, “Yangi o‘zbek adabiyoti” fanlari bo‘yicha darslik, qo‘llanma, o‘quv-uslubiy majmua, ma‘ruza matnlari tayyorlashda hamda ixtisoslik fanlarining nazariy bazasini shakllantirishda namoyon bo‘ladi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Odil Yoqubov tarixiy romanlari poetikasi tadqiqi bo‘yicha olingan ilmiy natijalardan:

tarixiy roman genezisi va taraqqiyot bosqichlari, konsepsiyasi, semantik strukturasi va badiiyati bilan bog‘liq poetik jihatlar ijtimoiy-siyosiy, adabiy muhit bilan uyg‘unlikda ochib berilgan tavsifa va xulosalardan T.N.Qori-Niyoziy nomidagi O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti Qoraqalpog‘iston filialida bajarilgan A1-XT-0-92997-raqamli “Yoshlarni umuminsoniy, milliy va tarixiy qadriyatlar uyg‘unligi asosida ma‘naviy-axloqiy tarbiyalashning muammolari” mavzusidagi amaliy loyihani amalga oshirish jarayonida foydalanilgan (O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti Qoraqalpog‘iston filialining 2022-yil 9-avgustdagi 191-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada loyihaning ilmiy-nazariy asoslari boyitildi;

Odil Yoqubov tarixiy romanlari sujet qurilishidagi izchillik, tarixiy qahramon talqinidagi yozuvchi mahorati, tarixiy voqelik falsafiy fikr ifodasi uchun xizmat qilib, badiiy-estetik funktsiya bajarishi usullaridan O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutida 2017-2020-yillarda bajarilgan FA-F-1-005-raqamli “Qoraqalpoq folklorshunosligi va adabiyotshunosligi tarixini tadqiq qilish” mavzusidagi fundamental loyihani amalga oshirish jarayonida foydalanilgan (O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti Qoraqalpog‘iston filialining 2022-yil 9-avgustdagi 191-sonli ma‘lumotnomasi). Shu asosda adabiyotshunoslikda tarixiy roman shakllanishi va tadriji hamda poetikasiga oid asosli ilmiy xulosalar chiqarildi;

davr va qahramon talqinidagi tarixiy haqiqat va badiiy to‘qima, ijodkor dunyoqarashi va badiiy qahramonlar o‘rtasidagi tasvir mushtarakligi adib tarixiy romanlari asosida qiyosiy-tipologik jihatdan isbotlangan xulosalardan O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot institutining Qoraqalpog‘iston filialida 2017-2020-yillarda bajarilgan F3-2016-0908165532 raqamli “Qoraqalpoq tilining yangi alfavit va imlo qoidalariga muvofiq ona tili va adabiyotini rivojlantirish metodikasi” mavzusidagi fundamental loyihani amalga oshirish jarayonida foydalanilgan (O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti Qoraqalpog‘iston filialining 2022-yil 9-avgustdagi 192-son ma‘lumotnomasi). Natijada loyihaning ilmiy-nazariy asoslari izchil boyitildi;

yo‘zuvchining badiiy qahramon va harakter yaratish, tarixiylik va zamonaviylik, milliylik va umuminsoniylikni ifodalash mahorati tarixiy roman rivojidagi yetakchi tamoyil va taraqqiyot bosqichlariga oid tahlil hamda kuzatishlardan “Jadid adabiyoti tarixi” darsligidagi nazariy masalalarni yoritishda foydalanilgan (Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining 2021-yil 25-dekabrda 538-sonli buyrug‘iga asosan 538-283 raqami bilan ro‘yxatdan o‘tgan guvohnoma, Farg‘ona davlat universitetining 2022-yil 6-dekabrda 01-4738-sonli

ma'lumotnomasi). Natijada ushbu tadqiqotning ilmiy xulosalari darslik materiallarini ilmiy jihatdan boyishiga xizmat qilgan;

adib tarixiy romanlarining xronotop poetikasi tarixiy qahramon va badiiy personajlar, zamon va makon, harakter va ruhiyat munosabatiga oid xulosalardan Qozon (Privolje) Federal universiteti Filologiya va madaniyatlararo kommunikatsiyalar instituti rus adabiyoti va uni o'qitish metodikasi, tatar adabiyoti kafedralari professor-o'qituvchilarining "Jahon adabiyoti", "Sharq xalqlari adabiyoti", "Tatar va o'zbek madaniyatlari dialogi" fanlaridan ma'ruza va seminar mashg'ulotlarida foydalanilgan. Shuningdek, tadqiqot xulosa va tavsiyalaridan bakalavriat hamda magistratura mutaxassisliklari uchun onlayn-ma'ruzalarga tayyorgarlik jarayonida foydalanilgan (Qozon (Privolje) Federal universiteti Filologiya va madaniyatlararo kommunikatsiyalar institutining 2022-yil 31-avgustdagi 0.1.2.10.1.01-09/322-sonli ma'lumotnomasi). Natijada mashg'ulotlar uchun mo'ljallangan ilmiy va uslubiy materiallar dalillar bilan boyitildi;

dissertatsiyaning tarixiy roman genezisi va taraqqiyoti, sujet-kompozitsion xususiyatlariga oid materiallardan Tojikiston Huquq, Biznes va Siyosat Davlat universiteti talabalariga o'zbek adabiyotidan ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarni o'tishda, magistr, aspirant, doktorantlar tomonidan Sharq adabiyoti, romanchiligi, poetikasi bo'yicha olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlarida, kitob taqdimotlarida foydalanilgan (Tojikiston Huquq, Biznes va Siyosat Davlat universitetining 2022-yil 31-oktabrdagi 1249-sonli ma'lumotnomasi). Natijada o'quv mashg'ulotlari sifat va samaradorligi ortdi, XX-XXI asr o'zbek adabiyoti va romanchiligi masalalarini xolis va teran tahlil qilish imkoni kengaydi;

dissertatsiya materiallaridan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-sentabrdagi "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi PQ-3271 hamda 2021-yil 26-martdagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5040-sonli qarorlarida belgilangan vazifalarning bevosita ijrosini ta'minlash, aholi o'rtasida kitob, badiiy adabiyot, xususan, o'zbek tarixiy romanlari va Odil Yoqubov ijodi targ'ibotini amalga oshirishda foydalanilgan (Respublika ma'naviyat va ma'rifat Markazining 2022-yil 14-sentabrdagi 02/02/1299-sonli ma'lumotnomasi). Natijada o'tkazilgan tadbirlar va targ'ibot-tashviqot ishlari samaradorligi ortishiga erishildi;

tadqiqotdagi ilmiy qarashlar va xulosalardan Farg'ona viloyati teleradiokompaniyasining 2020-2022-yillarda efirga uzatilgan "Ma'naviyat sarchashmasi", "Adabiy muhit", "Qadriyat" ko'rsatuvlarida, shuningdek, "Ma'naviyat – qalb ko'zgusi" radioeshittirishlari ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (Farg'ona viloyati teleradiokompaniyasining 2022-yil 19-sentabrdagi 01-04-12/110-sonli ma'lumotnomasi). Natijada ushbu teleko'rsatuv va radioeshittirishlar uchun tayyorlangan materiallarning mazmuni mukammallashib, ilmiy dalillar bilan boyidi, ko'rsatuvlarning sifati oshdi;

dissertatsiya ilmiy natijalari va materiallaridan O'zbekiston Respublikasi Yozuvchilar uyushmasi Farg'ona viloyati bo'limida uyushma a'zolari bilan

o'tkazilgan seminarlar, yosh ijodkorlarning to'garak mashg'ulotlarida, O'zbekiston xalq yozuvchisi Odil Yoqubov adabiy merosi targ'ibotiga bag'ishlangan tadbirlarda hamda aholi o'rtasida o'tkazilgan adabiy uchrashuv, suhbat va kitob taqdimotlarida foydalanilgan (O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Farg'ona viloyati bo'limining 2022-yil 14-oktabrdagi 66-sonli ma'lumotnomasi). Natijada seminar-trening, to'garak mashg'ulotlari hamda uchrashuvlarning ilmiy ahamiyati va samaradorligi ta'minlandi.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot ishi natijalari jami 19 ta ilmiy-amaliy anjumanda, jumladan, 6 ta xalqaro va 13 ta respublika anjumanlarida aprobatsiyadan o'tkazildi.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 37 ta ilmiy ish nashr etilgan, jumladan, 1 ta monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 16 ta maqola (13 tasi respublika hamda 3 tasi xorijiy jurnallarda) nashr etilgan. 1 ta mualliflik huquqi guvohnomasi olingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, to'rt bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Tadqiqotning umumiy hajmi 256 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **Kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati ochib berilgan, natijalarning amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Tarixiy romanning spetsifik xususiyatlari**" deb nomlangan. Mazkur bob "**Tarixiy roman genezisi va taraqqiyoti**" va "**Tarixiy roman konsepsiyasi, semantik struktura va badiiylik**" nomli ikki fasldan tarkib topgan. Unda tarixiy roman genezisi va taraqqiyoti, konsepsiyasi asosida romanning semantik strukturasi tashkillanishi, muallifning badiiylikni namoyon etishdagi mahorati ko'rsatib berilgan. Adibning "Ulug'bek xazinasini", "Ko'hna dunyo" romanlari yuqoridagi nazariy muammolar aspektida tahlilga tortilgan.

Tarixiy roman borasida Yevropa uyg'onish davri vakillari, xususan, italyan, fransuz olim va ijodkorlari – Skaliger, Antonio Minturno, Lodoviko Kastelvetto, Torkvato Tasso, Pyer Daniel Yuening ishlari diqqatga sazovor<sup>11</sup>. XX asrda jahon adabiyotshunosligida tarixiy romanlar poetikasi J.Nild, B.Metyuz, X.Kem, A.Dikinson, A.Xolder, G.Batterfield, E.Leyzi kabi olimlar tadqiqotlarida yoritilgan<sup>12</sup>.

<sup>11</sup>Қаранг: Литературные манифесты западноевропейских классицистов. – Москва, 1980. – 618 с.; Куронов Д., Рахмонов Б. Фарб адабий-танкидий тафаккури тарихи очерклари. – Тошкент: Фан, 2008. – 275 б.

<sup>12</sup> Nield J. A Guide to the Best Historical Novels and Tales. – L., 1929.; Matthews B. Historical Novel and Other Essays. – Freeport, 1968. Cam H. M. Historical Novel. – L., 1961; Dickinson A. T. American Historical Fiction. – N. Y., 1958; Holder A. The Imagined Past. Portrayals of Our History in Modern American Literature. – Lewisburg,

Rus adabiyotshunosi M.Baxtin roman janrining ilk shakllari xalq og‘zaki ijodida yuzaga kelganligini qayd etadi. Gegel romanning shakllanishini epos bilan bog‘lagan bo‘lsa, V.Kojinov XV asrda Germaniyada yaratilgan shvanklarning xalq kitobidan boshlanganligini ta‘kidlaydi. Keyingi yillarda o‘zbek adabiyotshunosligida yaratilgan G‘.Murodov, P.Nurjanov, F.Ikromxonovlarning ishlari ham e‘tiborga loyiq<sup>13</sup>. Hususan, G‘.Murodovning tadqiqotida o‘zbek tarixiy romanlarida mushtaraklik va o‘ziga xosliklarning uyg‘unligi masalasi, P.Nurjanovning ishida 1970-2000-yillardagi qoraqalpoq romanida sujet va kompozitsiyaning o‘ziga xosligi, F.Ikromxonovning tadqiqotida o‘zbek va ingliz nasrida tarixiy roman poetikasi qiyosiy o‘rganilgan. Odil Yoqubov romanlarining poetik jihatlarini o‘rganish va shu asosda ilmiy-nazariy xulosalar chiqarishda yuqoridagi olimlar tadqiqotlariga murojaat etilib, ayrim ishlarga munosabat bildirildi.

Professor S.Mirvaliyev “O‘zbek romani” monografiyasida realistik romanning paydo bo‘lishi va taraqqiyotini belgilashda quyidagi 4 manbaga asoslanadi: 1) voqelik; 2) xalq og‘zaki ijodi; 3) klassik adabiyot; 4) rus, qardosh va jahon xalqlari romanchiligining ta‘siri. Darhaqiqat, keltirilgan omillar o‘zbek romanchiligi yaratilishida asosiy poydevor bo‘lib hizmat qiladi. O.Yoqubov tarixiy romanlari hamda keyingi davrlarda yaratilgan barcha tarixiy romanlarning vujudga kelishida ham ko‘rsatib o‘tilgan manbalarning ahamiyati katta ekanligini alohida e‘tirof etish zarur.

Ma‘lumki, yozuvchi hayotiy tasvirlar orqali odamlarning yashash tarzi, xulqi, psixologiyasi, o‘y-mushohadalari, orzu-intilishlarini ko‘rsatib beradi. Fikrimizcha, badiiylik funksiyasi va romaniy tafakkur poetik jilolari ko‘lamining yangilanishi, kengayishi va tadrijiy taraqqiyotida quyidagi omillarni inobatga olish zarur:

1. XX asr boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy, ma‘naviy-ma‘rifiy jarayon badiiyat talqinlari janr ko‘rinishlarining maydonga kelishiga keng imkoniyat yaratib bergan.

2. Uzoq yillik poetik tasvir an‘analarining shakliy va uslubiy takomillashuv jarayoni yozma badiiy adabiyotga ta‘sir etgan.

3. Epik tafakkur an‘anasi xalq og‘zaki ijodidan yozma badiiy adabiyotga, keyinchalik romaniy tafakkurdan epik talqinlarga o‘tgan va bu jarayon kengaygan.

4. Tarix, tarixiy voqelik va tarixiy shaxslar olamini badiiy anglashga bo‘lgan sharoit yangilangan.

5. Tarixiy romanlarda tarixni aks ettirish orqali buyuk o‘tmish jonlantirilib, shu asosda tarixiy voqelikka kitobxon diqqati qaratilgan, ajdodlar merosiga munosabat uyg‘otilgan.

O‘tgan davrlarda tarixiy roman g‘oyat murakkab bosqichni boshidan kechirishiga qaramasdan, buyuk siymolar obrazini yaratish an‘anasi izchillik bilan

---

1980; Butterfield H. The Historical Novel. – Cambridge, 1924; Butterfield H. History and Man’s Attitude to the Past: Their Role in the Story of Civilization. – L., 1961; Butterfield H. The Reconstruction of an Historical Episode. – Glasgow, 1951; Leisy E. The American Historical Novel. – Norman, 1950.

<sup>13</sup> Murodov F. Tarixiy romanning mushtaraklik va ўziga xosliklar uyg‘unligi muammolari: Fil. fan. dok. ... diss. – Toshkent, 2018. – 263 b.; Nurjanov P.E. Qoraqalpoq romani poetikasi: sujet va kompozitsiya (1970-2000 yillar): Filol. fan. dokt. ... diss. avtoref. – Nuкус, 2020. – 61 b.; Ikromxonova F.I. Ўzbek va inglizabon nasrda tarixiy asar poetikasi (kompozitsiya va obraz): Fil. fan. dok. ... diss. – Toshkent, 2021. – 256 b.

davom ettirildi. Istiqlol yillariga kelib jahon tamadduniga hissa qo‘shgan, xalqimizni olamga tanitgan tarixiy shaxslar obrazini xolis va haqqoniy yaratish uchun keng imkoniyatlar yuzaga keldi. Bu, o‘z navbatida, tarixiy romanchilikning yangi bir davri boshlanganligidan dalolatdir.

O‘zbek tarixiy romanlari genezisi va tadrijiy taraqqiyotini poetik xususiyatlaridan kelib chiqib, quyidagicha davrlashtirishni maqsadga muvofiq deb bildik:

1. Ilk izlanishlar davri (XX asrning 10-yillari).
2. Yuzaga kelish va shakllanish davri (20-30-yillar).
3. O‘zgarish va yangilanishlar davri (40-60-yillar).
4. Taraqqiyot davri (70-80-yillar).
5. Mustaqillik davri adabiyoti (90-yillardan hozirgacha).

Tadqiqotda badiiy asarning semantik tarkibi asar matnidagi barcha struktur birliklarning o‘zaro muvofiqligi sanalib, adibning har ikki romanidagi semantik aloqadorlik voqelik, obrazlar, turli voqealarning mantiqiy bog‘liqligi asosida amalga oshirilgan.

**“Tarixiy romanning sujet-kompozitsion xususiyatlari”** nomli ikkinchi bobning **“Sujet qurilishi”** deb nomlangan birinchi faslida yozuvchining tarixiy romanlarida mifologik elementlar, afsona va rivoyatlardan foydalanish imkoniyatlari, shuningdek, badiiy konflikt, tarixiy sharoit hamda xarakter masalalari sujetning asosiy unsurlari sifatida o‘rganildi. Zarur o‘rinlarda M.Avezovning “Abay” hamda I.Sultonning “Alisher Navoiy” romanlariga murojaat qilinib, ilmiy-nazariy xulosalar chiqarildi.

Uzoq yillik tarixga ega badiiyat mezonlarida inson qismati zamon talotumlari zahirida o‘z ifodasini topib kelmoqda. Shuning uchun ham tarixiy romanlarda davr va inson fojiasining badiiy talqini sujetda mujassamlashgan bo‘ladi. Ma’lumki, davrning yetuk shaxslari har bir voqelik, tarixiy muhit va sharoitga shaxsiy ta’sirini bevosita o‘tkazmay qolmaydi. Yozuvchi hayotiy voqealarni tasvirlar ekan, badiiy xarakterlar yaratadi va shu orqali o‘z mahoratini namoyon qiladi. Chunki ana shu hayotiy tasvir natijasida odamlarning turmush tarzi, xulqi, psixologiyasi, o‘y-mushohadalari, orzu-intilishlari ko‘rsatib beriladi. Bu esa, o‘z navbatida, badiiy asar sujetidan o‘rin olgan barcha voqealar silsilasida harakat qiluvchi xarakterlarni yuzaga chiqaradi.

“Aslini olganda, san’atkor niyatining ro‘yobga chiqish darajasi, obrazlar mohiyatini ochishning chuqurligi, g‘oyaning aniqligi, umuman, badiiy asarning yaxlitligi, o‘qishliligi, badiiy-estetik kuchi ko‘p jihatdan sujet va kompozitsiyaning mukammalligi, mazmunga qay darajada muvofiqligi bilan bog‘liqdir. Asar sujeti va kompozitsiyasi yaxlit bo‘lishi uchun yozuvchi-san’atkor borliqdagi hodisalarning o‘zaro bog‘liqligini chuqur idrok etishi kerak. Buning uchun esa san’atkorning g‘oyaviy yetukligi, estetik qarashlarining to‘g‘riligi muhimdir. Shunday bo‘lgandagina u mukammal sujet yarata oladi”<sup>14</sup>. Bu esa tarixni anglash, uning murakkab va notinch voqeligini ijodkorona his eta olish, romaniy tafakkurni shakllantirish bilan bir qatorda, sujet qurilishini badiiy mukammallikka olib chiqadi.

---

<sup>14</sup> Раҳимов А. Роман санъати. – Фарғона: Фарғона, 2015. – Б.8.

Har qanday badiiy asarning sujet qurilishida ijodkor uslubi, hayotiy tajribasi, badiiy mahorati uzviy birlikda o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi. Chunki badiiy sujet va kompozitsiyaning yaxlitligi yozuvchining hayot konsepsiyasi hamda dunyoqarashiga bog‘liq. Shu ma’nodagi, Odil Yoqubov tarixiy romanlarida ham o‘ziga xos sujet qurilishi kuzatiladi.

Professor H.Boltaboyev fikricha, “Ulug‘bek xazinasini” romanida yozuvchini birgina Ulug‘bekning taqdiri qiziqitirmaydi (garchand u yirik tarixiy shaxs bo‘lsa-da), Ulug‘bekning ulug‘ligi ma’rifatli shoh va ajoyib insonligidagina emas, u yaratgan ilmiy-adabiy merosda aks etgan... Tarixiy janrning asosiy belgilaridan biri shundan iboratki, yozuvchi kitobxon ko‘z o‘ngida o‘sha davr ruhiyatini tiriltira olishi kerak. Buning uchun u e’tiborni tarixiy shaxslar taqdiriga qaratadimi, davrning suronli kurashlari manzarasini chizadimi yoki e’tiborni ko‘proq qahramonlar tiliga qaratadimi, bu harakatlar yuqoridagi bosh maqsadga yo‘naltirilishi hamda shu kunga daxldor ma’naviy masalalarga ham munosabat bildirilishi kerakki, ana shundagina tarixiy asar xalq ma’naviyati xazinasidan joy oladi”<sup>15</sup>.

Haqiqatan ham, Odil Yoqubov tarixiy shaxslar siymosini yaratar ekan, muhitning murakkab va ziddiyatli qirralarini obrazlar tizimi orqali ochib berdi. Toj-u taxt kurashlarining avj olishi natijasida Ulug‘bek Mirzoning iztirobli hayoti o‘ta ziddiyatli va murakkab tarixiy davr fonida o‘z aksini topdi. Mazkur tarixiy voqelik asarning badiiy mukammalligini ta’minlashi natijasida xarakterlarning voqealar rivojida shakllanishiga zamin yaratadi. Natijada romanda xarakterga hamohang bo‘lgan voqelik asos qilib olinib, qahramonlar aynan shu voqealar tizimida harakatlanadi va xarakter sifatida shakllanadi, qahramon ruhiy-ma’naviy holatini yoritishga xizmat qiladi. Akademik M.Qo‘shjonov ta’kidlaganidek: “Hayotiy voqealar va xarakterlar birikmasidan badiiy sujet chiqishi uchun o‘zaro uzviy bog‘liq va tugal bir asarga asos bo‘lishi lozim. Yozuvchi tanlagan har bir epizod, har bir voqea, uning katta yo kichikligidan qat’iy nazar, shu voqeada bevosita yoki bilvosita ishtirok etadigan xarakterning biror tomonini, yozuvchi niyatiga binoan, albatta, zarur tomonini ochib berishga xizmat qilishi kerak”<sup>16</sup>. Darhaqiqat, Odil Yoqubov “Ulug‘bek xazinasini”, “Ko‘hna dunyo” romanlarida Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Mirzo Ulug‘bek, Ali Qushchi, Abdullatif kabi o‘nlab tarixiy siymolarning badiiy obrazini yaratar ekan, ularning tarixiy voqelik zamiridagi shiddatli kurashlari, ruhiy iztiroblar iskanjasidagi qiynoqlari va ma’nan yuksalish o‘rinlari asardagi voqelikning mantiqiy izchilligiga asoslanadi.

“Sujetida konflikt bo‘lmagan asar ta’sirchan emas, chunki unda hayotiy haqiqat to‘la va izchil ifodalanmaydi. Faqat xarakterlarning to‘qnashuvi natijasidagina ularning ichki dunyosi eng to‘la ravishda ochiladi”<sup>17</sup>. “Konflikt sujetni harakatga keltiruvchi asosiy kuch bo‘lib, sujetning asosiy bosqichlarini belgilaydi”<sup>18</sup>.

<sup>15</sup> Болтабоев Х. Наср ва услуб. – Тошкент: Фан, 1992. – Б.56.

<sup>16</sup> Қўшжонов М. Сайланма. Икки жилдлик. Иккинчи жилд. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1983. – Б.216.

<sup>17</sup> Sulston I. Adabiyot nazariyasi. Darslik. – Toshkent: O‘qituvchi, 2005. – B.110.

<sup>18</sup> Қуронов Д. ва б. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент, Akademnashr, 2010. – Б.144.

Odil Yoqubov tarixiy romanlarida hayotiy ziddiyatga asoslangan tarixiy voqealar silsilasida turfa xil konfliktlarning badiiy ifodasini kuzatamiz. Natijada, ijtimoiy sharoit va qahramon, xarakterlararo, ruhiy konfliktlar tarixiy roman sujeti badiiy mukammalligini ta'minlashga xizmat qilgan. Ana shu jihatdan "Ulug'bek xazinasini" da Mirzo Ulug'bek va sharoit, Mirzo Ulug'bek va xarakterlar to'qnashuvi ruhiy iztiroblar iskanjasidagi murakkab ziddiyatlar qahramonlarning xarakter-xususiyatini ochishga xizmat qilgan bo'lsa, "Ko'hna dunyo" romanida esa Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy va tarixiy muhit o'rtasidagi yetakchi obrazlar va xarakterlararo hamda ruhiy konfliktlar zamirida ikkinchi darajali personajlar olami tasvirlangan.

"Ulug'bek xazinasini" romanidagi konflikt shohlik, toj-u taxt uchun kurashlarda teranroq namoyon bo'lsa-da, Mirzo Ulug'bekning ota va o'g'il munosabatlaridagi ziddiyatlar kitobxonni iztirob va dahshatga soladi. "Ko'hna dunyo" romanida esa ma'naviy tanazzulning inson qalbidan o'rin olishi va uning qurboniga aylanishi yetakchilik qiladi.

Yozuvchi tarixiy romanlarining asosiy xususiyatlari sifatida quyidagilarni qayd etish mumkin:

1. Yozuvchi Mirzo Ulug'bek siymosini yaratishda sharoitning xarakterga ta'sirini yoki, aksincha, xarakterning ijtimoiy muhitga ta'sir o'tkaza olish jarayonlarini talqin etishda mantiqiylikka, badiiy meyorga, tarixiy davr haqiqatiga asoslanadi.

2. Shoh va olimning murakkab xarakterini ijtimoiy muhit ziddiyatlari orqali jonlantiradi.

3. San'atkor idrokini mifologik tafakkur, falsafiy, badiiy-estetik vositalar bilan boyitadi.

Bobning "**Retrospektiv sujet va uning badiiy-estetik funksiyasi**" nomli ikkinchi faslida adibning tarixiy romanda sujetning ushbu turidan foydalanish mahorati, bu kabi sujetning tarixiy obrazlar yaratishdagi ahamiyatiga e'tibor qaratilgan.

O'zbek romani taraqqiyoti shuni ko'rsatadiki, keyingi davrlarda sujet yoki uning ichki elementlarini joylashtirishning retrospektiv usullaridan foydalanishga intilish kuchaymoqda, retrospeksiyaning shakllari ham rang-baranglashib bormoqda, ular romanbop rivoya tarkibiga singdirilmoqda, tarixiy voqelikni aks ettirishda asosiy sujet turi sifatida qaralmoqda.

Ilmiy adabiyotlarda badiiy sujet tiplari tasniflari xususida bir qator fikrlar bildirilgan<sup>19</sup> bo'lib, badiiy adabiyotda sujetning quyidagi 4 tipi mavjudligi qayd etilgan: 1) xronikali; 2) konsentrik; 3) retrospektiv; 4) assotsiativ. Mazkur tasnif boshqa olimlar tomonidan ham qo'llanilgan<sup>20</sup>. Ushbu havolada ta'kidlangan ishlarda

<sup>19</sup> Қаранг: Хализев В. Драма как явление искусства. – Москва, 1978. – С.88; В.Оскоцкий В. // Дружба народов. – 1983. – № 10. – С.244; Михайловский В. Драматургия М.Горького эпохи первой русской революции. – С.321-324; Добин Е. Жизненный материал и художественный сюжет. – Л., 1956. – С.13; Коробан В. Современный молдавский роман. – Москва, 1979. – С.203; Шодиев Н. Горизонты эпоса. – Ташкент, 1986. – С.8-9.

<sup>20</sup> Қаранг: Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002. – Б.122-123; Худойбердиев Э. Адабиётшуносликка кириш. – Тошкент: Шарқ, 2008. – Б.80; Умуров Х. Адабиётшунослик назарияси. – Тошкент, 2021. – Б.99; Rahimov Z., Gulomov D. Retrospective plot features. PRA International Journal

barcha mualliflar sujetning yuqoridagi to‘rt tipi haqidagi fikrni ma’qullaydi. Faqatgina ularning ayrimlari<sup>21</sup> sujetning beshinchi, ya’ni sintetik (aralash) tipi mavjudligini ta’kidlashadi. Bizningcha, ushbu fikr bahsli, chunki romanning hozirgi taraqqiyot bosqichida bir asar tarkibida turli sujet ko‘rinishlarining bo‘lishi tabiiy hol. Ikkinchidan, sujet tiplaridan birortasini sof holda ko‘rishga intilish va shu asosda mavjud romanlarni sistemalashtirishga urinish samarasizdir. Hozirgi romanlarda sujet qurilishi qanchalik murakkab, ko‘p qirrali va sintetik bo‘lmasin, baribir, har qanday konkret romanda ko‘rsatilgan sujet tiplaridan birontasi yetakchi mavqeni egallaydi<sup>22</sup>.

Retrospektiv sujet – “qahramonning o‘tmish biografiyasi”ga qaytuvchi<sup>23</sup> usul, unda voqealar teskari tartibda boshlanadi, yozuvchi voqealar rivojini to‘xtatib qo‘yib, masalaning tarixiga qaytadi, sodir bo‘layotgan jarayonlar manbalarini ko‘rsatish qahramon xarakterining shakllanish sabablarini ochishga imkon beradi, voqeani asosiy sujet ichiga joylashtiruvchi qoliplovchi kompozitsiyaga yaqin turadi<sup>24</sup>.

Zamonaviy romanlarda retrospektiv chekinishlar romanbop tasvirning faol va organik vositasiga aylandi. Qahramon taqdirining ibtidosiga qaytish usuli badiiy vositalar yordamida amalga oshiriladi, kitobxon buni voqealar rivojidan anglab oladi. Hozirgi epik rivoyada retrospektiv chekinishlarning badiiy funksiyasi ham o‘zgardi. Bu usulda nafaqat personajlar o‘tmishi jonlantiriladi, balki voqealar chalkashtirilib, konflikt chigallashtirilib, uning mohiyati qahramonlarga ham, o‘quvchilarga ham ma’lum bo‘lmagan holatda qo‘llaniladi. Natijada, personajlarga o‘y-xayollarini, iztirob va kechinmalarini, o‘z qilmishlarini tahlildan o‘tkazishga imkon yaratiladi. Ana shy tarzda sujet qurishning retrospektiv usuli qahramon ichki dunyosini taftish qilish vositasiga aylanadi.

Retrospektiv sujetning ko‘rinishlari ilmiy adabiyotlarda to‘liq holda ko‘rsatilmagan. Faqatgina tadqiqotchi B.To‘rayeva retrospeksiyaning biografik, psixologik va retrospeksiya-xronika kabi turlari mavjudligini qayd etgan<sup>25</sup>. Mazkur tasnifda retrospeksiya badiiy zamon nuqtayi nazaridan yondashilgan. Bizningcha, retrospektiv sujetning kim tomonidan, qanday shakl va qaysi paytda berilishiga ko‘ra turlari mavjud. Ular tadqiqotda ko‘rsatib o‘tilgan.

Retrospektiv rivoyaning hikoyachi-muallif tomonidan berilishi borasida hikoyachi bilan muallif bitta degan xulosaga kelish unchalik ham to‘g‘ri emas. V.Vinogradovning ta’kidlashicha, hikoyachi obrazi muallif obraziga qaraganda

---

of Multidisciplinary Research SJIF Impact Factor: 7.03 Monthly Peer Reviewed & Indexed International Online Journal Volume: 6 Issue: 11 November 2020. – Б.510-513; Раҳимов З., Фуломов Д. Retrospective structure in fiction. “Actual problems of classical and modern uzbek literature” collection of the international online conference, 2020. – Б.153-160. Фуломов Д. Ретроспектив сюжет хусусида айрим мулохазалар // ФарДУ. Илмий хабарлар. – 2021, 4-сон. – Б.128-133.

<sup>21</sup> Худойбердиев Э. Адабиётшуносликка кириш. – Тошкент: Шарқ, 2008. – Б.80.

<sup>22</sup> Раҳимов А. Ўзбек романи поэтикаси (сюжет ва конфликт): Филол.фан.д-ри...дисс.автореф. – Тошкент: 1993. – Б.12-13.

<sup>23</sup> Коробан В. Современный молдавский роман. – Москва, 1979. – С.203

<sup>24</sup> Раҳимов А. Ўзбек романи поэтикаси (сюжет ва конфликт): Филол.фан.д-ри...дисс.автореф. – Тошкент: 1993. – Б.12.

<sup>25</sup> Тўраева Б. Тарихий романларда бадийий замон муаммоси: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори(PhD)... дисс. – Тошкент, 2018. – Б.43.

torroq bo‘lib, u muallif obrazi bilan tasvirlanayotgan voqelik o‘rtasida vositachi, ularni o‘zaro bog‘lovchi vazifasini bajaradi<sup>26</sup>.

“Ko‘hna dunyo” romanida faqat uchta retrospektiv epizodgina hikoyachi-muallif tomonidan beriladi. Hikoyachi-personaj retrospeksiyasida esa voqealar hikoyachi-personaj tomonidan tasvirlanadi. Retrospektiv epizodlar hikoyachi-personaj tomonidan turli shakllarda yaratiladi. Jumladan, voqealar: a) hikoyachi-personaj tilidan; b) hikoyachi-personaj nigohi orqali; v) hikoyachi-personaj xayoli orqali; g) hikoyachi-personajning tushi orqali beriladi.

Hikoyachi-muallif esa qahramon his-tuyg‘ularini, ko‘nglidan o‘tkazgan kechinmalarini uning o‘zi ifoda etgan darajada tasvirlay olmaydi va u bunday imkoniyatga ega ham bo‘lmaydi. U voqealarni chetdan turib kuzatuvchi sifatida tahlil qiladi va ular quyidagi shakllarda namoyon bo‘ladi:

1. Retrospektiv epizod – hikoyachi-personaj tomonidan bayon qilinganda, voqealar bevosita uning **tilidan** I shaxs shaklida beriladi.

2. Retrospektiv epizoddagi voqealarni hikoya qilishning navbatdagi shaklida hikoyachi-personajlar **nigohidan** kechgan voqealargina tasvirlanadi (Retrospektiv rivoyaning bu usuli keng tarqalgan – R.Z.).

3. Personaj **tushida** kechgan voqealar retrospektiv rivoya usulida beriladi (Ushbu usul ayrim badiiy asarlarda uchrab turadi – R.Z.).

4. Retrospektiv rivoyada o‘tmish voqealari hikoyachi-personaj tomonidan uning **xayoli** orqali tasvirlanadi.

Demak, romanda retrospektiv sujetning o‘ziga xos xususiyatlari 1) voqealar birin-ketin, tartib bilan hikoya qilinmasligida; 2) retrospektiv epizodda berilgan voqealar keyingi retrospektiv epizodda davom ettirilishida yoki ettirilmashligida; 3) voqealar tafsilotlari iker-chikirigacha, ya‘ni atroflicha hikoya qilinmasligida; 4) voqea lo‘nda va ixcham berilishida; 5) voqealarni hikoyachi “xolis” turib hikoya qilmasligida; 6) ba‘zan voqealarga o‘z munosabatini bildirgan holda, o‘z his-tuyg‘u va hayajonlarini qo‘shib hikoya qilishida; 7) tasvirlanayotgan voqealar ketma-ketligi bo‘linib qolishi natijasida muayyan voqea, fikr nihoyasiga yetmay qolishida; 8) xayol orqali beriladigan retrospektiv epizodlar mavjudligida kuzatiladi.

“Ko‘hna dunyo” romanida asotirlar, afsona va rivoyatlar katta o‘rin tutadi. Ayni paytda, afsona va rivoyatlar sujet taraqqiyoti bilan bog‘liq bo‘lib, xarakterlarga epiklik bag‘ishlaydi<sup>27</sup>. Garchi asotir va afsonalarning har biri romanda mustaqil va tugal bo‘lsa-da, asosiy sujetga parallel ikkinchi bir majoziy yo‘nalishni tashkil qiladi. “Ko‘hna dunyo” romanida yonma-yon ikkita sujet yo‘nalishi beriladi: 1) hayotiy voqealarni hikoya qiluvchi sujet yo‘nalishi; 2) mif, afsona va rivoyatlardan tuzilgan majoziy sujet yo‘nalishi.

Bundan tashqari, asardagi majoziy sujet yo‘nalishi hayot voqeliklarini hikoya qiluvchi yo‘nalishga hamohang bo‘lib, uni sharhlab boradi va romanning asosiy g‘oyaviy mazmunini ochishga ko‘maklashadi. Shu ma‘noda, romanda qo‘llanilgan mif, afsona va rivoyatlar mavzusu va g‘oyaviy mazmuniga ko‘ra quyidagicha

<sup>26</sup> Виноградов В. О теории художественной речи. – Москва: Наука, 1971. – Б.116-117.

<sup>27</sup> История узбекской литературы. В 5-ти томах. –Т. 4-5. – Ташкент: Фан, 1994. – С.189-190.

guruhlanadi: 1) ijtimoiy tuzum va adolatli podsho haqida; 2) sevgi va sadoqat haqida; 3) aql va zakovat haqida; 4) hayot va o‘lim haqida.

Xullas, yozuvchi romanda retrospektiv sujetdan foydalanishi natijasida quyidagilarga erishgan: 1) voqealar zamon va makonda ixchamlashgan; 2) asar sujetiga aloqador bo‘lgan muhim jihatlarga yoritilgan; 3) qahramon nutqining o‘ziga xosligi ta‘minlangan; 4) yozuvchi badiiy konsepsiyasi ifodalangan; 5) voqealar badiiy haqiqatga aylantirilgan.

Uchinchi fasl “**Kompozitsion yaxlitlik va ijodkor mahorati**” tadqiqiga bag‘ishlangan. Badiiy asarning mukammalligi sujet va kompozitsion yaxlitlikda namoyon boladi. Kompozitsiya – “badiiy asar qismlarini yaxlit badiiy niyat ijrosi uchun eng optimal holda joylashtirish, badiiy sistemadagi unsurlarni o‘zaro aloqa va munosabatlari ravshan anglashiladigan tarzda butunlikka birlashtirish”<sup>28</sup>. Shu bilan birga, “...ijod jarayonida hayotni badiiy ifodalashning muhim vositalaridan, san‘at asarining zarur unsurlaridan biridir. ...kompozitsiya badiiy asarning zarur unsuri ekanligini, dastavval, uning sujet bilan uzviy bog‘liqligida ko‘ramiz... Chunki sujet unsurlarining muayyan maqsadda bir-biri bilan birikuvi kompozitsiya hodisasidir...”<sup>29</sup>. Badiiy asarning yaxlitligida shakl va mazmun, mavzu va g‘oya, ba‘zan sujetni ham boshqaradigan badiiy unsur – kompozitsiya hisoblanar ekan, Odil Yoqubov tarixiy romanlarida ham uning o‘ziga xos, yozuvchi g‘oyasiga hamohang tarzda uzviyligi namoyon bo‘ladi.

Hayotiy voqeliklar jarayonida inson xarakteri turli vositalar ta‘sirida shakllanib, aniq iroda yo‘nalishiga ega bo‘lgan shaxsga aylanadi: “Shaxs favqulotda murakkab, nodir butunlikdir. U o‘zining ma‘naviy olamida insoniyatni ijtimoiy-maishiy, biologik va boshqa jihatlardan muhitga bog‘liqligini mujassam etadi”<sup>30</sup>. “Ulug‘bek xazinasi” romanidagi badiiy psixologizm aniq tarixiy davrdagi shaxslar psixologiyasi bo‘lib, davr ruhini to‘laqonli ochishga, badiiy xarakterning yaxlit shakllanishiga xizmat qiladi.

Badiiy xarakterlar asar mukammalligi bilan bir qatorda, kompozitsion butunlikni tashkil etishga ham xizmat qiladi. “Ulug‘bek xazinasi” romani uchun Mirzo Ulug‘bek hayotining so‘nggi damlari asos qilib olinsa-da, real tarixiy voqelik asarda ruhiy-badiiy zamon sifatida o‘z aksini topish bilan birga, Ulug‘bek Mirzo xarakterini yoritishda tarixiylikka asoslanib, uning shohlik, olimlik, otalik jihatlari va ruhiy iztiroblari haqqoniy tasvirlanadi. Bu xususiyatni yuzaga chiqarishda muallif ong oqimi, ichki monolog, tush, mulohaza yuritish, dialog, tabiat tasviri kabi psixologik vositalardan unumli foydalangan. Bu borada tush tasviri nafaqat qahramon ruhiy kechinmalarini, balki qahramon xarakterini ochishga va uni kitobxon tomonidan teranroq anglashiga turtki bo‘lgan. Tush tasviri “Ulug‘bek xazinasi” romanida yetakchi o‘rin egallaydi. H.Umurov ta‘kidlaganidek, “u (tush tasviri – R.Z) qahramonlar ichki dunyosini, ularning nozik kechinmalarini ochish maqsadida ishlatila boshlandi”<sup>31</sup>.

<sup>28</sup> Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Akademnashr, 2010. – Б.141.

<sup>29</sup> Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. Дарслик. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002. – Б.137.

<sup>30</sup> Сариян С. История. Современность. Личность. – Москва: Наука, 1980. – Б.11.

<sup>31</sup> Умuroв Х. Ўзбек романчилигида бадий психологизм. – Тошкент: Ўқитувчи, 1982. – Б.36.

Romanda tush motivi qismat darakchisi vazifasini ham bajaradi. Tadqiqotda bu doiradagi misollar batafsil tahlil etilgan. Roman kompozitsiyasida tush epizodlari quyidagilarga xizmat qiladi: 1) keyingi voqealar rivojiga asos bo‘ladi; 2) obrazlar ichki dunyosini ochib beradi; 3) konfliktni rivojlantiradi; 4) bosh qahramonning keyingi rejasini amalga oshirishga yordam berib, o‘zini anglashga turtki bo‘ladi; 5) kompozitsiyaning badiiy butunligini ta‘minlaydi.

Tahlillarning ko‘rsatishicha, Odil Yoqubovning tarixiy romanlarida kompozitsiyaning o‘ziga xos tamoyillari, xususan: 1) voqealar silsilasida; 2) obrazlar badiiy funksiyasida; 3) obrazlarning mantiqiyliigi va izchilligida; 4) obrazlar ruhiyatidagi keskin o‘zgarishlarda; 5) qahramon ma‘naviy olamining ijodkor g‘oyasiga hamohangligida ko‘rinadi va muallif mahoratini namoyon etadi.

Badiiy matnda keltirilgan talqinlardagi obrazli ifodalar zamirida ota va o‘g‘il o‘rtasidagi anglanishi mushkul bo‘lgan holatning yuzaga kelish sabablarini izlash unchalik to‘g‘ri emas. Bu borada Abdullatifning ma‘naviy olamini “sovuq bir ifoda”, “alang-jalang ko‘zlar”, “allaqanday sarosima” kabi kalit so‘zlar teranroq ochishga xizmat qilgan.

“Kompozitsiyaning ahamiyati turli-tuman qism, bob, bo‘laklarning mavjudligida emas, balki ularning maqsadga muvofiq tarzda uyushuvi va birlashuvi, muayyan tartib va intizomga bo‘ysinishida”<sup>32</sup> ko‘rinadi. “Ko‘hna dunyo” romanidagi kundaliklarda ifodalangan badiiy mushohadalar kompozitsion yaxlitlikni ta‘minlashga xizmat qiladi. Juzjoniy kundaliklarining boshqa retrospektiv epizodlardan farq qiladigan quyidagi jihatlari mavjud: a) asardagi barcha retrospektiv epizodlarda personajning xayolida kechgan voqealar III shaxs tilidan hikoya qilingan bo‘lsa, Juzjoniy kundaligidagi voqealar III shaxs bilan birga, I shaxs – Abu Ubayd tilidan ham bayon etiladi; b) asardagi epizodlarda ro‘y berayotgan voqealarning aniq vaqti, sanasi berilmaydi, kundalik xotiralarda esa ushbu tafsilotlar o‘rin oladi.

Bundan tashqari, Odil Yoqubovning tarixiy romanlaridagi kompozitsion markazni tashkil etuvchi ichki dialektik bog‘liqlik 1) asarlarning badiiy mukammalligini ta‘minlagan; 2) barcha unsurlar asardagi asosiy qahramonlar dunyoqarashini ifodalashga xizmat qilgan; 3) tarixiy obrazlar ma‘naviy olamini ochishga yo‘naltirilgan; 4) tasvirlangan tarixiy kurashlar, ziddiyatlarning shaxs qismatiga ta‘sirini ko‘rsatgan.

Tadqiqotning uchinchi bobi “**Tarixiy romanda badiiy xronotop**” deb nomlangan bo‘lib, “**Zamon va makon kategoriyalari**” nomli birinchi faslida, M.Baxtin nazariyasiga muvofiq, “Ulug‘bek xazinasi”, “Ko‘hna dunyo” romanlari zamon-makon munosabatlari asosida tahlil qilinadi.

Badiiy asarda xronotop vositasidan turli voqelik va qahramon ruhiy-ma‘naviy olamini ochishda unumli foydalaniladi. Shuning uchun ba‘zi tadqiqotlarda xronotopning o‘ziga xos badiiy funksiyalari haqidagi qarashlar, tahliliy yondashuvlar ilgari surilgan<sup>33</sup> bo‘lsa, keyingi yillarda esa bu borada o‘zbek

<sup>32</sup> Тўйчиев У. Ўзбек адабиётида бадийлик мезонлари ва уларнинг маромлари. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2011. – Б.339.

<sup>33</sup> Бахтин М. Литературно-критические статьи. – Москва: Художественная литература, 1986; Хазанкович Ю.Г. Хронотопы и хронотопические ценности в прозе народов севера. – Москва: Лингвистика и межкультурная

adabiyotshunosligida ham bir qator diqqatga sazovor tadqiqotlar yaratildi<sup>34</sup>. Tarixiy romanlar taraqqiyotiga nazar tashlansa, makon va zamonning turfa xil hodisalari asosida obrazlar olami va davr voqeligi o‘z ifodasini topganligini ko‘rish mumkin. Agar falsafiy nuqtayi nazardan yondashilsa, davr va makonning ijtimoiy voqelikka aloqadorligi ma’lum bo‘ladi, ammo estetik tamoyillarga asoslangan davr va makon esa badiiy voqelik bilan dialektik birlikda talqin etiladi.

Yozuvchi romanlarida hodisa va qahramonlarga turli rakurslarda yondashuv yetakchilik qiladi. Badiiy izchillik asosiga qurilgan tarixiy romanlarda tasvir ruhiyati badiiy makon va zamon yaxlitligidan o‘sib chiqadi. Aslida tarixiy haqiqat ifodasini sharoit taqozosi va tarixiy voqelikning badiiy uyg‘unligi yuzaga chiqaradi hamda estetik markazda uyushgan mohiyat epik maydonni tavsiflaydi.

Tarixiy roman poetikasida tarixiy voqelik uzviylikni badiiy makon hamda zamon orasida kechadigan turli xil voqeliklar rivojlantirib boradi. Tarixiy voqealar tizimi va mantiqiy izchilligi badiiy asardagi tarixiy va to‘qima obrazlar olamini shakllantiradi: “Badiiy makon – struktura komponentlari intizomini ijodiy segment sari yo‘naltiradigan asosiy kategoriya bo‘lib, davr ruhiyati va ijtimoiy mezon yaxlitligini belgilaydi”<sup>35</sup>, deb yozadi rus adabiyotshunosi G.Pospelov. Shu jihatdan, Odil Yoqubov ham romanda Mirzo Ulug‘bek hayotining avj dramatik pallasi – tarixiy voqelikning so‘nggi ikki yilini asar sujetiga singdirib boradi.

Tarixiy voqealar tizimi ma’lum bir makonda, ya’ni Xuroson va Movaraunnahrda yuz beradi. Makonda yuz bergan voqealar shiddati zamonga o‘tadi va dialektik birlikni, tarixiy voqealar rivojini ta’minlashga xizmat qiladi. Darhaqiqat, romanda badiiy vaqt birligini ifodalash tizimi sujet halqasini boshqaradi.

“Ulug‘bek xazinasi” va “Ko‘hna dunyo” romanlarida badiiy xronotop asar voqealari, obrazlar olami, xarakter shakllanishini ta’minlaydi. Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Mirzo Ulug‘bek, Abdullatif, Ali Qushchi yoki boshqa obrazlar bilan bog‘liq yorqin xotiralar, alamli xayollar, monologik ong tasviri makon

---

коммуникация, 2008. – №4. <http://ru.wikipedia.org>; Ритм пространство и время. В литературе и искусстве. – Л.: Наука, 1974; Эсалнек А.Я. Хронотоп в эпическом произведении // Основы литературоведения. Анализ художественного произведения: Практикум, – Москва: Флинта: Наука, 2003; Темирболат А. Категории хронотопа и темпорального ритм в литературе. Монография. – Казахстан: Алматы, 2009; Бахтин М. Романда замон ва хронотоп шакллари. Тарихий поэтикадан очерклар (Рус тилидан У.Жўракулов таржимаси). – Тошкент: Akademnashr, 2015.

<sup>34</sup> Тўйчиев А. Ўзбек романларида макон ва замон. Монография. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2009; Умарова М. Тарихий драмада бадий замон: Шекспир ва Фитрат. Монография. – Тошкент, Мумтоз сўз, 2013; Назаров Ў. Романда бадий хронотопнинг ўзига хослиги. – Тошкент: Турон замин зиё, 2014; Жўракулов У. Алишер Навоий “Хамса”сида хронотоп поэтикаси: Филол.фан.д-ри...дисс. – Тошкент, 2017; Насиров А. О.Ёкубов романлари поэтикаси: Филол. фан. д-ри... дисс. – Самарканд, 2018; Тўраева Б. Тарихий романларда бадий замон муаммоси (О.Ёкубов ва П.Қодиров романлари мисолида): Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 2018. Nasirov A. Badiylik va hayotiy haqiqat (“Yulduzli tunlar” va “Ona lochin vidosi” romanlari misolida). Istanbul, Kesit, 2019; Милюев С. Глобал илмий-бадий талкин поэтикаси: Филол. фан.д-ри... дисс. – Тошкент, 2020; Хурсанов Д. Ҳозирги ўзбек шеърятда хронотоп поэтикаси: Филол.фан.фалс.д-ри...дисс. – Самарканд, 2020; Юлчиев Қ. Ҳозирги ўзбек шеърятда макон ва вақт категорияси: Филол. фан.д-ри... дисс. – Фарғона, 2021; Йўлчиев Қ. Лирик топохронос. – Тошкент, 2021; Тўраева Б. Замонавий романларда хронотоп поэтикаси. Монография. – Тошкент: Effect-D, 2022; Тўраева Б. Замонавий романчиликда хронотоп поэтикасининг киёсий-типологияк тадқиқи: Филол.фан.докт....дисс.автореф. – Тошкент, 2022. – 72 б.

<sup>35</sup> Пospelов Г. Н. Проблема литературного стиля. – Москва: Наука, 1970. – Б.40.

va zamonda o'z ifodasini topadi hamda asar qahramonlari tasviridagi haqqoniylik va hayotiylikni belgilaydigan muhim omillardan biri sifatida e'tirof etiladi.

“Ko'hna dunyo” romanida ijodkor davr va makon tasvirini sujet tarkibiga mahorat bilan singdiradi. Bu esa o'sha ijtimoiy hayotning turfa olamini badiiy obrazlar asosida yoritish imkonini beradi. Asarda Abu Ali ibn Sino va Abu Rayhon Beruniy siymolari vositasida o'tmishning fojialari, ularning dardu alamlari, muhitning murakkab tomonlari talqin etiladi. “Ulug'bek xazinasi”, “Ko'hna dunyo” tarixiy romanlarida voqealar shiddati asar qahramonlarini o'z komiga tortadi, ularning badiiy olami, shaxs sifatidagi o'ziga xosliklari aynan zamon va makon fonida shakllanadi.

Adibning tarixiy romanlarida badiiy xronotop konsepsiyasi turli lavhalarda namoyon bo'ladi, chunki badiiy asarda vaqt va makon talqinlari orqali ma'lum bir davr ijtimoiy hayotidagi ziddiyatlar va shaxs xarakteridagi kechinmalar o'z aksini topadi.

Bobning “**Ijtimoiy-tarixiy konsepsiya: shaxs va xarakter**” nomli ikkinchi faslida badiiy vaqt konsepsiyasi talqinida shaxs va xarakter masalasi o'rganilgan. Odil Yoqubov “Ulug'bek xazinasi” romanida Mirzo Ulug'bek davrning murakkab qarama-qarshiliklariga qaramasdan, ilm-fan ravnaqi uchun og'ir bir sharoitda o'z maslagi yo'lida qat'iy kurash olib boradi. Hayotiy kurashlar uzviy birligida botiniy olamdagi qarama-qarshiliklar ham kuzatiladi. Ana shunday ziddiyatli sharoitda asar qahramonlarining xarakteri shakllanib boradi. Shuning uchun A.Rasulov “Ulug'bek – romandagi mukammal psixologik xarakter”, deya asar sujetidagi voqealar zamirida shakllangan va xarakter darajasiga ko'tarilgan shaxs obrazini nazarda tutadi. Odil Yoqubov ta'kidlaganidek, “...taraqqiyot ziddiyatsiz bo'lmaydi, ziddiyatlar esa hayotda inson xarakteriga bog'liqdir. Demak, zo'r hayotiy xarakterlar mavjud bo'lgan joyda zo'r to'qnashuvlar, davr taraqqiyotini belgilovchi zo'r konfliktlar, kurashlar, “g'oyalar dramasi” mavjuddir”<sup>36</sup>.

Akademik I.Sulton fikricha, “xarakter kishilarning ma'lum toifasiga xos xususiyatlarni ma'lum davrga, muhitga, kasbga, yoshga, jinsga mansub kishilarning sifatlarini yorqinlik bilan ifoda etadi. Xarakterda yozuvchining kishilarga va hayotga munosabati, hayotiy hodisalarga bergan estetik bahosi yaqqol ko'rinadi”<sup>37</sup>. Shuning uchun xarakter muallif estetik idealini tashiydi. Badiiy asarda xarakter muayyan psixologik sharoitda harakatlanishi natijasida namoyon bo'ladi.

Hayotda shunday xarakterlar bo'ladi, o'z ta'sirini muhitga o'tkazadi, yoki o'sha muhitning qurboniga aylanadi. Romanda xarakter va ruhiyatni ifodalovchi talqin va tasvirlar zamirida tun – zulmat va g'aflat belgisi, yer esa insonni o'zligiga qaytaruvchi makon ekanligi ko'zga tashlanadi. Ushbu tushuncha asardagi xronotop bilan bog'liq talqinlarning barchasida, hayot haqiqat bilan bir qatorda, inson botinidagi ziddiyatlarni, tafakkurdagi o'zgarishlarni ham o'z ichiga oladi. Mirzo Ulug'bek ruhiyatidagi iztiroblar orqali muhitning murosasiz kurashlari o'z ifodasini topadi. Ulug'bek saltanatidagi hukmronlikdan emas, qarama-qarshi kuchlarning kurashi avj olib borayotganligidan va yana o'zaro kurashlar, g'olib-u

<sup>36</sup> Ёқубов О. Сўз. – Тошкент: Sharq, 2019. – Б.150.

<sup>37</sup> Sulton Izzat. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2005. – Б.103.

mag‘lubliklardan emas, balki ko‘proq o‘z farzandiga qilich ko‘tarishdan ruhiy aziyat chekadi.

Ma‘lumki, qahramon ruhiyati keskin konfliktlar asosida namoyon bo‘ladi. Adabiyotshunos L.A.Ginzburg fikricha, “badiiy psixologizm inson xatti-harakati bilan bog‘liqlikda rivojlanadi, biroq bu dinamika ruhiy munosabatlar tasviridagi muayyan stereotiplarni yo‘qotmaydi, balki ularning yangi shakllarini kashf etadi”<sup>38</sup>. Shu ma‘noda, romandagi ruhiy kechinmalar faqat shaxs ichki olami tasvirida emas, balki xarakterlar o‘rtasidagi kurashda, qahramon va ijtimoiy muhit zamirida ham namoyon bo‘ladi. Romanda Mirzo Ulug‘bek ruhiyatini yoritish uchun emas, balki Abdullatif Mirzoning ruhiy, ma‘naviy dunyosini ochishda qahramonni psixologik jihatdan xarakterlovchi muhim vosita hisoblangan tush tasviridan o‘rinli foydalaniladi.

“Ko‘hna dunyo” romanida Abul Hasanak, shoir Unsuriy, vazir Ali G‘arib singari saroy amaldorlari va Piri Bukriy kabi savdogarlar tabaqasi vakillari alohida o‘rin egallaydi. Ular ulug‘ allomalar Beruniy va Ibn Sinoga qarama-qarshi o‘laroq, o‘z zamonasining jirkanch illat va qusurlarini namoyon etadi. Bu qahramonlar xarakterida olimlarni umuman pisand qilmaslik, hatto donishmandlarga munosabatda ham faqat o‘z foydasi-yu, manfaatini ko‘zlashlik, bu yo‘lda har qanday tubanliklardan qaytmaslik xususiyatlari ustunlik qiladi.

Adib tarixiy romanlaridagi obrazlar va xarakterlar ko‘lami makon hamda zamonda yuz bergan voqealarni ma‘lum bir tizimga solishga, motiv va badiiy detallarning asar mohiyatiga singdirilishiga xizmat qilgan. Shuningdek, tush, xotira, iztirob kabi unsurlar xronotop tizimida muayyan estetik funksiyani bajargan va asardagi xarakterlarning yaratilishiga zamin bo‘lgan.

Dissertatsiyaning “**Tarixiy romanda individual uslub va badiiyat**” nomli to‘rtinchi bobi birinchi fasli “**Uslub va mahorat**” deb nomlanadi. Mazkur faslda uslub ko‘rsatkichlaridan biri sifatida nutq qurilishi, xususan, dialogik va monologik nutqning o‘ziga xos jihatlari, yozuvchining murojaat shakllari, ritorik so‘roqlar, tayanch-kalit so‘zlardan foydalanish mahorati, muallif-hikoyachi, “xolis” hikoyachi, personaj-hikoyachi, solnomachi-hikoyachi kabi hikoyachi tiplari aniqlangan va tahlil qilingan.

Ta‘kidlash kerakki, badiiy uslub ijodkorning o‘ziga xos fenomeni hisoblanadi. Hamma davrlarda jahon adabiyotshunosligida bu muammoga jiddiy e‘tibor qaratiladi. O.Shpenglarning fikricha, “uslub madaniyatning o‘ziga xos xarakteri, davrning muhim belgisi, u yoki bu davrni aniq namoyon etuvchi hissiyotning metafizik shakli, “ma‘naviyatning atmosferasi”dir. Uslub san‘at, shaxs yoki biror predmet yoki material tanlamaydi. U tabiiy jarayonning bir ko‘rinishi bo‘lgan metafizik stixiya sifatida mavzuga aloqador barcha jarayonni bo‘ysundiradi, davrni ifoda etuvchi jarayonga aylanadi”<sup>39</sup>. Demak, uslub muallifning muayyan davr voqeligiga yondashuvi, ifoda jarayoniga aylantira bilish mahoratiga bog‘liq hodisa sifatida baholanadi.

<sup>38</sup> Гинзбург Л.А. О психологической прозе. – Л., 1971. – С. 44.

<sup>39</sup> Шпенглер О. Закат Европы. Очерки морфологии мировой истории. –Т.1.: Гештальт и действительность. Шпенглер О. пер. с нем., вступ.ст. и примеч. К.А.Свасьяна. – Москва: Мысль, 1993. – С. 663.

Rus adabiyotshunosi L.I.Timofeyev fikricha, uslub “asarning yaxlit kompozitsiyasidan tortib, alohida sifatlashgacha bo‘lgan barcha elementlarning birligi”<sup>40</sup> bo‘lsa, M.B.Xrapchenkning uqtirishicha, uslub “hayotni obrazli o‘zlashtirishda qo‘llaniladigan ifoda usullari, kitobxonni ishontirish va jalb qilish usullari”<sup>41</sup> demakdir. Qayd etilgan har ikki talqinda ham uslubning hayot voqeligini aks ettirishdagi ijodkor badiiy mahoratiga uzviy bog‘liqligi qayd etiladi.

Professor D.Quronov “... uslub badiiylik hodisasidir. Uslub yozuvchining ijodiy individualligini belgilaydi, ijodiy individuallik esa u yaratgan asarning barcha sathlari (badiiy matnning tuzilishi – ritorika, badiiy voqelikni yaratish prinsiplari – poetika)da birdek namoyon bo‘ladi. Ya’ni uslub badiiy shaklning unsuri emas, unga xos xususiyatdir”<sup>42</sup>, deb ta’kidlaydi.

“Tarixiy asarda davr ruhi, qahramonlarning o‘ziga xosligi badiiy tilda yaroq etib ko‘zga tashlanadi. Til – xalq xazinasi. Har bir san’atkor shu xazinadan o‘z ehtiyoji va mahoratiga ko‘ra foydalanadi. So‘z o‘z o‘rnida ishlatilsagina, uning “yuragi” ura boshlaydi. Birgina so‘z bir kartinani, voqeani, qahramon ichki dunyosini nurlantirib yuborishi, yozuvchi munosabatini bildirishi mumkin”<sup>43</sup>. Shu ma’noda, Odil Yoqubov tarixiy romanlari badiiy tilining serjiloliligi, tarixiy davrga hamohangligi bilan alohida ajralib turadi. Romanda har bir qahramonning badiiy nutqi uning ruhiy-ma’naviy qiyofasini namoyon qiladi. Shu jihatdan yondashilganda, Mirzo Ulug‘bek nutqi ham olam va odamning o‘ziga xos tahlili, falsafiy mushohadaga boyligi, hayotiy va ruhiy holatini ta’sirchan ifodalashi bilan ajralib turadi. Yozuvchi romanda monolog va dialoglardan ham o‘rinli foydalanadi. Shu nutq ko‘rinishlarida Mirzo Ulug‘bek ruhiyatidagi qalb iztiroblari, oila, davr va muhit bilan bog‘liq ziddiyatlar yashirin ifoda topadi. U go‘yo endigina odamlarni angelayotgandek, ularni tushunayotgandek holda tasvirlanadi. Chunki uzoq yillar davom etgan kurashlar, saroydagi bo‘htonlar ularning ruhiy-ma’naviy qiyofasini yorqin ochib berolmaydi. Ammo bir necha kun davomidagi kurash ularning ichki dunyosidagi barcha jihatlarni ochishga xizmat qiladi.

Odil Yoqubov tarixiy romanlarida ham badiiy qahramonlarning nutqi orqali ularning ma’naviy qiyofasini bo‘rttirib tasvirlash usulidan boradi. Bu esa kitobxonning nafaqat badiiy personajlar olamini, shu bilan birgalikda, davr ziddiyatlariga munosabatini ham shakllantiradi. Mavlono Muhiddinning “ – Ishonchli joy... bu dargohmu?”<sup>44</sup> yoki “Kamina bu ishga qiblagohimdan bemaslahat qo‘l urmasmen”<sup>45</sup> kabi mulohazalarining o‘ziyoq, uning qiyofasini, ruhiy olamini anglash imkonini beradi. Bu kabi tasvirlarda muallif o‘zini “chetga” oladi, faol ishtirok etmaydi, balki personaj qalbiga singib, o‘z qarashlari va mulohazalarini qahramon olami, kechinmalari orqali aks ettirish, uning nigohi orqali razm solish usulini tanlaydi.

<sup>40</sup> Тимофеев Л.И. Основы теории литературы. – Москва: Просвещение, 1971. – Б.408.

<sup>41</sup> Храпченко М.Б. Творческая индивидуальность писателя и развитие литературы. – Москва, 1970. – С.109.

<sup>42</sup> Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. Darslik. – Toshkent: Akademnashr, 2018. – B.448.

<sup>43</sup> Расулов А. Бадийлик – безавол янгилик. – Тошкент: Шарк, 2007. – Б.192.

<sup>44</sup> Ёқубов О. Танланган асарлар. Уч жилдлик. Иккинчи жилд. Улуғбек хазинаси. Роман. Тўлдирилган қайта нашри. – Б.40.

<sup>45</sup> Юкоридаги манба. – Б.41.

Dialogik nutq zamiridagi dramatik holatlar badiiy konfliktni kuchaytirish bilan birgalikda, asar personajlarining ruhiy-ma'naviy qiyofasini ham yoritishga xizmat qiladi, davrning murakkab ziddiyatlari yoritilishiga asos bo'ladi. Asarda xayolan Ali Qushchining qarashlari muhokama qilinar ekan, ushbu holat muhokama dialog orqali ifodalanadi.

“Ko'hna dunyo” romanida ham tarix haqiqati talqini alohida e'tirofga loyiq. Asarda qahramonlar nutqi mukammal darajada individuallashtirilgan. Fikrimizni asoslash maqsadida asardagi Mahmud G'aznaviy, Ibn Sino va Beruniy monologlariga tegishli bo'lgan quyidagi parchalarni keltirish joiz. Mahmud G'aznaviy nutqi: “Ey, yaratgan egam!.. Nahot bu majusiylar tiriklayin o'tda kuyib ketadiki, ammo tiz cho'kmaydi? Qo'shiq aytib tiriklayin yong'uvchi elni birinchi ko'rishim bu!..”<sup>46</sup>. Abu Ali ibn Sinoning ichki monologi: “Yo rab! Telba taqdirning ne o'yini bu? Yoshlik birodari Shokalon bu musofir yurtlarda meshkobchilik qilib yurgan bo'lsa!..”<sup>47</sup>. Beruniy nutqi: “Yo parvardigor! Bu insof, bu afsus-nadomatlarni bu g'ofil bandangning ko'ngliga o'ttiz-qirq yil muqaddam solsang bo'lmasmidi?”<sup>48</sup>.

Adibning “Ko'hna dunyo” romani tarkibidan badiiy-estetik yangilik sifatida joy olgan hodisalardan yana biri – bu hikoyachi tiplarining muallif-hikoyachi, “xolis” hikoyachi, personaj-hikoyachi, solnomachi-hikoyachi sifatida namoyon bo'lishidir. Bu jarayonni goh asar qahramonlari, goh ikkinchi darajali personajlar, ba'zan esa muallif tomonidan “ijro” etilishi romanda polifonik (ko'povozli) nutqning paydo bo'lishiga olib kelganligi o'zbek tarixiy romanidagi jiddiy yangilikdir.

Bobning **“Badiiy nutq xususiyatlari”** nomli ikkinchi faslida tarixiy romanlardagi muallif va personaj nutqi tahlil etilgan. Badiiy nutq asar ichida muallif tomonidan qay tarzda hikoyalanihiga qarab yozuvchining fikrlash doirasi, yozish uslubi, falsafiy mushohadasi haqidagi tasavvurlar, fantaziyalarning umumiy jamlanmasi namoyon bo'ladi. Odil Yoqubov tarixiy romanlarida tarixiy voqelik va tarixiy shaxs obrazini yaratishda badiiy tilning funksiyasini teran anglagan holda, ularning turfa xil olamini yaratadi, uzoq o'tmish ko'z o'ngimizda jonlanadi. Oqibatda, obrazlarning xarakter qirralari davrga, muhitga, ijtimoiy qatlamga hamohang tarzda shakllanib boradi. “Ulug'bek xazinasini” va “Ko'hna dunyo” romanlarida ham badiiy tilning mukammallik xususiyati kuzatiladi. Bu jarayonda adib estetik qiymat kasb etadigan tasvir usullarini tanlaydi, natijada tarixiy romanlardagi har bir obrazning o'z nuqtayi nazari va qarashlari asosidagi personajlar nutqi yaratiladi.

“Ulug'bek xazinasini” romanida Mirzo Ulug'bek “bir burda non, bir qumg'on sovuq suv”ga rozi bo'lib, qolgan umrini ilmga, asarlarini tugatishga sarflamoqchi bo'lganida, noqobil o'g'il otasining bu olijanob va pok niyatini amalga oshirishiga yo'l bermaydi. Mirzo Ulug'bek shohlik, shahzodalik, toj-u taxt o'g'lining “ko'zini ko'r, qalbini zimiston”ga aylantirib ulgurganiga ishonch hosil qiladi.

<sup>46</sup> Ёқубов О. Кўҳна дунё. Тарихий роман. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1983. – Б.214.

<sup>47</sup> Юқоридаги манба. – Б.247.

<sup>48</sup> Юқоридаги манба. – Б.198.

Roman matnida milliy koloritni namoyon etuvchi tarixiy joylar, tarixiy shaxs nomlari bilan birgalikda, “valine’mat padarim”, “soyaboni marhamat”, “zebi ziynatlar”, “farzandi arjumandingiz”, “Yo rabbiy!” kabi sintaktik birliklarni, shuningdek, “kirmagan teshik qolmabdi” kabi frazeologik birliklarni qo‘llash ham muallifning badiiy mahoratidan dalolat beradi. Bu esa badiiy asarda tasvirlanayotgan saroy muhiti, odamlari, shoh-u shahzodalar ruhiyatining davr tili va milliy kolorit orqali asosli yoritilganligi natijasi ekanligini qayd etish lozim.

